



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR

JURNALISTLAR

Dunyo dardi Sizning dardingiz,
Har jabhada bong urasiz, bong.
Haq yo'lida yo'q sarhadingiz,
Har go'shada oppoq otsin tong –
Maqsadida eng ulug' hislar –
Jurnalistlar.

Qurolingiz qalam, oq qog'oz,
Baholaysiz har ishni odil,
Yalangto'shsiz bahor-u qish, yoz,
G'ayratingiz nelarga qodir –
Ortingizda chaqmoqli izlar –
Jurnalistlar.

Millat deya kuyar joningiz,
Axir udir yurtning egasi.
Tinch qo'ymaydi uyg'oq oringiz,
Tarixi-yu bugun, ertasi,
Kelajakni ko'rolgan ko'zlar –
Jurnalistlar.

Siz – olamni ko'rsatar ko'zgu,
Siz – zaminning qaynoq nafasi,
Shaxtingizdan taralar yog'du,
Har so'zingiz haqiqat sasi,
Haq yo'lida xalq bo'lib so'zlar –
Jurnalistlar.

Zulfiya YUNUSOVA



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 26-IYUN
№26 (3192)



Bitiruv



MUQADDAS BURCH SARI ILK QADAM

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida yosh ofitserlarning navbatdagi bitiruviga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Bu shunchaki bitiruv emas, balki mamlakat tinchligini saqlashga bel bog'lagan navqiron avlodning orzulari sinovdan o'tgan, sadoqati qasamga aylangan, yuraklariga Vatan degan muqaddas tushuncha abadiy muhrlangan unutilmas kun sifatida tarixga bitildi.

Marosimda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari – Respublika Harbiy prokurori adliya polkovnigi Qahramon Isroilov, Oliy Majlis Senati a'zolari, faxriy mehmonlar hamda bitiruvchilarning ota-onalari ishtirok etdi.

Harbiy orkestr sadolari ostida saf maydoniga mardonavor kirib kelayotgan yosh ofitserlar qiyofasida ishonch, g'urur va sadoqat uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ldi. Ular endi oddiy yoshlar emas, Vatan himoyasini o'z hayotining ma'nosiga aylantirgan mard o'g'lonlar.

Tadbirda so'zga chiqqan mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov bitiruvchilarni samimiy muborakbod etar ekan, ularni tarbiyalab, bilim bergan ustoz-murabbiylar hamda farzandlarini shu darajaga yetkazgan ota-onalar mehnatini alohida e'tirof etdi. Shuningdek, u yosh ofitserlar zimmasiga yuklangan mas'uliyatning naqadar ulkan ekanini ta'kidlab,



g'urur va mas'uliyat tuyg'ularini yanada mustahkamladi. Zero ular aytgan har bir so'z ishonch, umid va da'vat sifatida yuraklardan yuraklarga ko'chdi.

Marosimning badiiy qismi esa milliy an'analar va tarixiy ruh bilan uyg'un tarzda davom etdi. Sahnada Amir Temur siymosi orqali yangragan murojaat, ajdodlar merosiga sadoqat va Vatan himoyasiga chorlovlar yosh avlod qalbida milliy g'ururni yanada yuksaltirdi.

Bu kun nafaqat bitiruvchilar uchun, balki butun jamiyat uchun muhim voqealik bo'ldi. Chunki aynan shunday sadoqatli, bilimli va matonatli yoshlar mamlakat tinchligi va barqarorligining eng ishonchli kafolatidir.



Muhimi, yangi avlod ofitserlari safga qo'shildi. Ular bilan birga Vatanning ertangi kuniga bo'lgan ishonch yanada mustahkamlandi.

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA,
"Vatanparvar"**



ularni Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga chorladi.

Shundan so'ng bitiruvchilarga diplom va ko'krak nishonlari topshirildi. Albatta, bu kabi lahzalar harbiy xizmatchi qalbida umrbod muhrlanadi. Sahnadan yangragan samimiy tilaklar, faxriy mehmonlar va taniqli ijodkorlarning yuksak bahosi yosh ofitserlarning qalbidagi



Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV



**O'zbekiston Respublikasi
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universitetining Quruqlikdagi
qo'shinlar institutida
navbatdagi bitiruv marosimi
bo'lib o'tdi.**

Tantanali tadbirda mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari – Qurolli Kuchlar bosh shtabi boshlig'i general-mayor Zaynobiddin Iminov, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik



VATANGA XIZMAT — OLIY SHARAF



kengashi a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Hilol Nasimov, institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, faxriylar, bitiruvchilar hamda ularning ota-onalari ishtirok etdi.

Marosim davomida general-mayor Zaynobiddin Iminov bitiruvchilarni samimiy qutladi. Bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan Qurolli Kuchlar tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilayotganini, harbiy ta'lim sifatini oshirish, qo'shinlarning jangovar shayligini mustahkamlash hamda zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

Tadbir davomida bitiruvchilarga diplom, ko'krak nishoni va esdalik sovg'alar tantanali ravishda

topshirildi. Marosimda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, ota-onalar bitiruvchilarga o'zlarining samimiy tilaklarini bildirdi. Yosh leytenantlar zimmasidagi ulkan mas'uliyatni his qilgan holda bildirilgan yuksak ishonchga munosib bo'lishga va'da berdi.

Harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari va harbiy orkestr jamoasining Vatanni madh

etuvchi kuy-qo'shiqlari barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

Mazkur bitiruv tadbiri nafaqat yosh ofitserlar hayotidagi muhim voqea, balki davlat xavfsizligini ta'minlash yo'lidagi navbatdagi muhim qadam sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



YANGI AVLOD OFITSERLARI SAFI KENGAYMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy tibbiyot institutida yosh ofitserlarning navbatdagi bitiruv marosimi bo'lib o'tdi. Shu kuni taqdirini yurt taqdiriga chambarchas bog'lagan, osoyishtalik posboni bo'lishni maqsad qilgan bir guruh harbiy xizmatchilar hayotida unutilmas kun sifatida muhrlandi.



SHARAFLI VA MAS'ULIYATLI BURCH

Tantanali tadbirda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, keng jamoatchilik vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda yosh ofitserlarning ota-onalari ishtirok etdi.

So'z olganlar harbiy tibbiyot yo'nalishini muvaffaqiyatli tamomlagan yosh mutaxassislarini muborakbod etar ekan, ular endi nafaqat harbiy xizmatchilar, balki yurtdoshlarimiz salomatligini muhofaza qilishdek sharaflari va mas'uliyatli vazifani bajarishga kirishayotgan shifokorlar ekanini ta'kidladi. Bitiruvchilarga ezgu tilaklar yo'llandi, olingan bilim va egallangan ko'nikmalar xizmat faoliyatida mustahkam tayanch bo'lishiga ishonch bildirildi.

Leytenantlar ham zimmalaridagi ulkan mas'uliyatni chuqur his etgan holda kasbga sadoqat ramzi sifatida Gippokrat qasamini qabul qildi. Tadbir davomida bitiruvchilarga diplom va ko'krak nishonlari tantanali ravishda topshirildi.



ILM-MA'RIFAT MASKANI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutida ham yosh ofitserlarning navbatdagi bitiruv marosimi katta tantana bilan o'tkazildi.

Tadbirda mudofaa vazirining raqamlashtirish, sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik bo'yicha o'rinbosari polkovnik Bahrom Urmanov so'zga chiqib, yosh ofitserlarga qo'shinlardagi faoliyatlarida omad va zafarlar tiladi. Shundan so'ng bitiruvchilarga diplom va ko'krak nishonlari topshirildi.

Aytish joizki, joriy yilda mazkur institutni qozog'istonlik, tojikistonlik va qirg'izistonlik kursantlar ham a'lo baholar bilan tamomladi.

Bu esa ushbu bilim dargohi nafaqat mamlakatimiz yoshlari uchun ishonchli ta'lim maskani, balki qo'shni respublikalar harbiy kadrlarini tayyorlashda ham muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi.

Bilasiz, azaldan bu zamin ilm-ma'rifat maskani, ezgulikka tayanch va botirlarga beshik bo'lib kelgan. Shu bois ham bu yurt tinchligi va osoyishtaligi har bir vatandosh uchun eng oliy qadriyat hisoblanadi.



HAVO SARHADLARINING SARLOCHINLARI

Shu kuni havo sarhadlarining bo'lajak posbonlari ham mustaqil hayotga kuzatildi. Harbiy aviatsiya institutini tamomlagan sarlochinlarga yuksak parvozlar va xizmatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilandi.

Tadbirda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi, Qashqadaryo viloyatidagi davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda kursantlarning yaqinlari ishtirok etdi.

Marosim davomida bitiruvchilarga samimiy tilaklar bildirilib, ularning kelgusi faoliyati



Vatan ravnaqi va xalq manfaatlariga xizmat qilishiga ishonch bildirildi. Tadbirning badiiy qismi harbiy-vatanparvarlik festivali ko'rinishida davom etdi.

Shu tariqa O'zbekiston havo sarhadlarining bo'lajak qo'riqchilari o'zlari uchun qadrdon bo'lib qolgan ta'lim dargohi bilan xayrlashdi. Biroq ular bu maskanda komandir va ustozlaridan yetarli kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallab, kelajakdagi xizmat faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Demak, bugungi yigitlarning yangi hayot sari tashlayotgan har bir qadami ishonch, mas'uliyat va Vatanga sadoqat tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan.

**Kapitan
Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**



Mardi maydonlar

YO'LDAGI YO'LOVCHIGA

Poytaxt osmoni so'nggi kunlarda go'yo uzoq safardan qaytgan qadrdon do'stday yana yuz ochdi. Bir necha oy davomida shahar uzra parda tortib turgan xiralik chekindi, osmonning musaffo ko'kligi ko'zga yaqqol ko'rina boshladi. Endi shom cho'kkan mahalda bulutlarning vazmin suzib yurishini tomosha qilish, tun qorong'isida esa miltillab turgan yulduzlarni bemalol sanash mumkin. Bu yaxshi. Chunki ekologiya yaxshilandi.

Aytgancha, o'tgan kuni sokin oqshom qo'ynida to'rt yoshli o'g'lim bilan sayrga chiqdik. Ko'cha chiroqlari nurini yerga sochar, mayin shamol daraxt barglarini asta tebratar, osmon esa o'zining cheksiz sirlari bilan tepamizda sukut saqlab turardi. Bir payt o'g'lim qadamlarini sekinlatib, boshini yuqori ko'tardi. Uning nigohi yulduzlarga qadaldi.

– Dada, yulduzlar nega yonadi? – dedi u hayrat to'la ovozd.

– Ularning vazifasi shu, – deya qo'lidan tortib, yo'lda davom etishga chog'landim.

– Sizning vazifangiz nima?

Indamadim. Inday olmadim. Nima deyishni bilmadim-da, aka. Keyin osmonga qaradim. Milliardlab kilometr uzoqlikda yonayotgan yulduzlar, o'z o'qi atrofida tinmay aylanib, vazifasiga bel bog'lagan Yer va uning qo'ynida hammasi haqida bilishni istagan yonimdagi bola...

Ha, inson katta bo'lgani sayin bilim orttirar ekan-u, biroq hayratlanish qobiliyatini asta-sekin yo'qotib borarkan. Balki, yo'qotmas. Shunchaki, unutar. Ishqilib, nimadir sodir bo'ladi-da. Lekin bir haqiqat borki, aytmamam, bo'lmaydi: bolalar dunyoni ta'riflar va qoidalar orqali emas, mo'jizalar orqali ko'radi.

Darvoqe, o'zi boshqa bir voqeani aytib bermoqchi edim. Hamkasbim, leytenant Mirjalol Abdujabborov Sharq tomondagi harbiylar ishtirokida o'tkazilgan o'quvlardan olgan rasmlarini jo'natibdi. Ishoning, ularga uzoq termildim. Yo'q, xatosini topish uchun emas, **yigitlarning nigohlaridagi g'ayrat va muhabbat hayratga solgandi meni. Ular Vatanning bir bo'lagi, bir qism tuprog'i, havosi edi. Qoyalar bag'ridagi toshdek ko'rindi. Ha, vazifalari shu – yurtning osoyishtaligini ta'minlash. Qalqon bo'lish.**

– Qalqon ham bo'ladimi?

– Qalqon bo'lsin-da!

– Bunga qasam ichdimi?

– Allaqachon bu yo'lda yo'lovchiga aylandi.

Aylandi. O'rgildi. Ont ichdi. Bedor bo'ldi. Keyin halovatni shundan topdi. Manzilga bordi.



– Soyga bordimi?

– Qirga chiqdi.

Chiqdi. Keldi. Ketdi.

Bilakdagi kuch qayerdan keladi? Izlanganida to'ladi. Ko'zdagi g'azab nimadan paydo bo'ladi? O'ziga talabchan bo'lganida so'nadi. So'nadi, so'nadi. Vatan uchun joni bor bo'lganda alanga oladi. Bu ishq. Uni har nafas borligini bildirish kerak.

– Ishqi borlar, omon bo'lsin!

– Vujudi qaynaganlarga tasanno!

...o'sha kuni barmoqlar qurol qo'ndog'iga yopishdi. Ko'zlar nishonga qadalib turibdi. Tana aql hukmida. Yurak Vatan tuprog'iga qorishish istagi bilan urmoqda. Yetakchi jangovar hayqirdi.

– Guruh, yo'lda pistirma bor.

Hamma sergak tortdi. "O'tkir ko'z" atrofni kuzata boshladi. Merganlik miltig'idagi o'q yana ko'zdan kechirildi. Stvollar to'g'riga – adog'i yo'q tikanaklarga qadaldi. Sukut. Nafaslar ichga yutildi. Kipriklar qimir etmaydi. Faqat yagona dupurlash eshitiladi – yurak sasi.



Leytenant Mirjalol ABDUJABBOROV

AYLANGAN YURAKLAR



tuproqni muqaddas bil. Bilki, uni aslo havoga sochib yuborma.

Harakatda bo'lgan azamatlar qarshisidan daryo chiqdi. Suv o'shqirdi.

– Vish!

Komandir saf oldiga keldi. Atrofga ko'zlarini tikdi. Qaror qabul qilish kerak. Boshlangan ish oxiriga yetmay, tugaydimi?

– Tugasinmi?

Tugamaydi. Ular chorasiz holda ham so'nggi ipni tutadi. Qo'llari bo'shashmaydi. Qadamlari to'xtamaydi.

– Narigi qirg'oqqa o'tamiz.

Guruhdan ikki nafar harbiy xizmatchi ajralib chiqdi va safdoshlarini himoya qilish uchun atrofni kuzata boshladi. Qolganlar tabiat bo'lagidan o'tish uchun ishga kirishdi.

– Hushyorlikni yo'qotmang!

Ha, ehtiyotkorlar g'alaba qozonadi.

Nishonga bormay, uni ko'radi. Tahlil etadi. O'q otish joyini oldindan belgilab oladi. Yana suv. Liboslar nam tortdi. Qurol ko'klik bag'ridan uzilib, oldinga qaratildi.

– To'g'rilangan har stvoldan patron otilib chiqadimi?

– Maqsadingga qaraydi.

Bu yurtning alplari hamisha ontini nafasida ushlaydi. Kiprigida xotirjamlikni ko'taradi.

– Gardani egilmaydimi?

– Egilgan bo'yinlar bizdan emas!

Qo'rqqoqlar qochadi. Mardlar ko'ksini tutadi. Tarbiya maydonda kezadi.

Oxirgi manzilga keldik. O'qdonlar almashtirildi. Tepki qayta bosildi. Qirlardan chang uzilib, havoga tirmashdi, qochdi. Nishon bag'ri yorildi, so'ng quladi. Vazifa keragidan oldin uddalandi.

– Ahdlilar mard bo'ladi.

– Mardlar qaytmas bo'ladi.

Shunday, aka! Sharqning himoyachilari tog' bag'rini ham, ko'l ustini ham o'zlariga maydon qila oladi. **Topshiriqlardan tajriba orttirish uchun avval olinganini ko'rsatadi. Ha, bu an'ana. Ulkan maktab. Ustoz-shogird yo'li.**

Aytgancha, yo'l deganda o'sha kuni o'g'limning mitti qo'lini mahkam ushlab, madorsiz ortga qaytdim. Tepamizda osmon soqchilari – yulduzlar sochib yuborilgan edi. Shahar shovqinsiz, mashinalarning qattiq "dodlashi" quloqqa chalinmaydi. Keyin bolamni yelkamda ko'tardim. U kuldi.

– Tepadan, yaxshi ko'rinyapti.

– To'yib qarab ol!

Uning ozg'in barmoqlari sochlarimni mehribonlik bilan siladi. Oyoqlari yuragim ustida osilib turardi.

Biz uygacha shunday ketdik.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**

U muqaddas kuyga tushib olgandek, o'z vazifasini bajaryapti – hujayralarni jonlantirmoqda.

– Qon bo'lmasa, jon bo'larmidi?

– Jonni qondan ajratib bo'lmaydi.

Ajratma. Axir ular bir maqsadga qaragan ikki yo'l.

Yo'llar toraydi. Ammo harbiylar ortga qaytmadi. Ular yana oldinga intildi.

Boraverdi-boraverdi. Borgani maqsadiga yetdi. Nishonni yo'q qildi, otdi, qulatdi va sharaf topdi.

– Nishon bilan sharaf topmaydi.

– Sharaf uchun qurol olinmaydi.

Ha, bu yuraklar burchni his qiladi. Onalar aytgan allada dard bor, maqsad bor, kelajak bor!

– Kelajakni qo'y, bugun haqida gapir!

– Ertasiz inson dastasiz bolta emasmi?!

Bolta bo'l, chop, sindir, maydala! Lekin o'zligingdan qaytma! Bobong omon yetkazgan

Xalqaro e'tirof

PARASHYUTCHI ALPLARIMIZ

shohsupada

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilib kelayotgan Vatan himoyachilarining mahorati va jasurligiga bugun xalqaro maydon lol qolmoqda. Yigitlar erishayotgan natijalar ko'lam haqiqatan keng. Albatta, bu yutuqlar davlatimiz tomonidan milliy armiyamizda olib borilayotgan islohot va qaratilayotgan e'tibor sabab qo'lga kiritilyapti.

Masalan, yaqinda Belarus Respublikasi hududida o'tkazilgan parashyut sporti bo'yicha Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlarining XXII ochiq chempionatida ham harbiy xizmatchilarimiz munosib ishtirok etib, mamlakatimiz sharafiga himoya qildi.

Bahslar shiddatli kechdi. Musobaqada Belarus, Rossiya, Qozog'iston va O'zbekistondan kelgan jami 14 ta erkak hamda 8 ta ayoldan iborat jamoa g'oliblik uchun kurash olib bordi. Shuningdek, individual yo'nalishda 100 nafardan ortiq harbiy xizmatchi birinchi o'ringa harakat qildi.

Aytish kerakki, har bir shart va topshiriq qatnashchilarning kasbiy mahoratini, jamoaviy ishlash ko'nikmasini va bildirilgan ishonchni oqlash borasidagi harakatlarini baholash imkonini berdi.

Musobaqa dasturiga ko'ra, aniq nuqtaga sakrashda harbiy xizmatchilar samolyot hamda vertolyot orqali 1 000 metr



Ha, bu tashqaridan qaraganda oson va uddalash mumkindek ko'rinadi. Biroq havoda hech narsasiz va hech qanday ilinjsiz qolganda faqat ko'nikma qo'l keladi. Bunda orttirilgan tajriba so'zini aytadi. Qisqasi, bu musobaqa yigitlarimiz uchun navbatdagi shohsupaning keyingi pog'onasida tik turish imkonini berdi.

Gap shundaki, ikkala shart yakunlariga ko'ra, individual va jamoaviy bellashuvlarning g'olib va sovrindorlari aniqlandi.

Yurtdoshlarimiz o'zlarining yuqori professional

tayyorgarligi, mustahkam irodasi va mahorati evaziga kuchli raqiblar orasida peshqadamlar safida bo'ldi. Parashyutchi alplarimiz xalqaro miqyosda O'zbekiston Qurolli Kuchlarining nufuzini yana bir bor namoyish etdi. Takrorlanmas lahzalarda harbiy xizmatchilarimiz yorqin natijalar ko'rsatib, ikkita jamoa tarkibida faxrli ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egalladi.

Bahodirlarimiz Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro

aeroportida Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, oila a'zolari va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida tantanali tarzda kutib olindi.

Ha, bu yutuqlar, e'tiroflar va ehtiromlar bejiz emas, albatta. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining aynan tizimda olib borayotgan keng ko'lamli islohoti, g'amxo'rliqi, yaratib berilayotgan shart-sharoitlar tufaylidir. Chunki o'z vaqtida qilingan qo'llov g'alabaga olib boradigan yo'lni tez bosib o'tishga kuch bag'ishlaydi.

Kapitan Sh. SAIDOV,
"Vatanparvar"



balandlikdan parashyut bilan sakrab, belgilangan nuqtaga qo'nishni amalga oshirdi. Individual akrobatik sakrash sharti esa chin ma'noda yurak urishlarini yanada oshirdi. Gap shundaki, ushbu shartda harbiylar 2 200 metr balandlikdan erkin yiqilish jarayonida 30 soniya ichida oltita akrobatik manyovrni bajarishi talab etildi.

Muqaddas burch

OSMON POSBONLARI SAFIDA

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, zamonaviy xavf-xatarlarning ko'payishi va harbiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi har bir davlatdan o'z mudofaa salohiyatini muntazam ravishda mustahkamlab borishni talab qilmoqda. Ayniqsa, mamlakatning havo hududini himoya qilish, davlat chegaralarining daxlsizligini ta'minlash va milliy xavfsizlikni kafolatlash masalalarida harbiy aviatsiyaning o'rni beqiyos.



Shu bois O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida harbiy aviatsiya eng muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan kuchlardan biri hisoblanadi.

Harbiy aviatsiya – bu faqat samolyotlar va vertolyotlar emas. Bu, avvalo, o'z Vataniga sadoqat bilan xizmat qilayotgan minglab harbiy xizmatchilar, uchuvchilar, muhandislar, texniklar, aloqa mutaxassislari va aerodrom xizmatlari xodimlarining fidokorona mehnatidir. Aynan ularning bilim va mahorati tufayli mamlakatimiz osmoni doim ishonchli himoya ostida bo'lib kelmoqda.

Harbiy aviatsiya safida xizmat qilish har bir yigit uchun katta sharaftir. Chunki aviator bo'lish – oddiy kasb emas, balki yuksak mas'uliyat talab qiladigan sharaflı missiya. Aviator o'z zimmasiga xalq va davlat ishonchini oladi. U har qanday vaziyatda hushyorlikni saqlashi, o'z vazifasini mukammal bajarishi va Vatan manfaatini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya olishi kerak.

Parvozga tayyorgarlik jarayoni ko'pchilik tasavvur qilganidan ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Har bir muvaffaqiyatli parvoz ortida yuzlab mutaxassislarning mehnati, ko'plab tekshiruvlar, texnik nazorat va puxta tayyorgarlik turadi. Samolyotning havoga ko'tarilishi, belgilangan vazifani bajarishi va xavfsiz tarzda qo'nishi uchun butun bir jamoa birgalikda ishlaydi. Shuning uchun ham aviatsiyada har bir mutaxassisning hisssasi muhim va qadrlı hisoblanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda zamonaviy aviatsiya texnikasi yuqori darajadagi bilim va kasbiy tayyorgarlikni talab qilmoqda. Harbiy aviatsiya bo'linmalarida xizmat qilayotgan askarlar va yosh harbiy xizmatchilar eng ilg'or texnologiyalar, elektron boshqaruv tizimlari, navigatsiya vositalari va murakkab texnik qurilmalar bilan ishlashni o'rganmoqda. Bu esa ulardan nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki chuqur nazariy bilim va doimiy ravishda o'z ustida ishlashni talab qiladi.

Harbiy xizmatning eng muhim jihatlaridan biri intizomdir. Aviatsiya sohasida esa intizom va mas'uliyatning ahamiyati yanada yuqori. Chunki bu yerda

har bir qaror, har bir buyruq va har bir harakat inson hayoti hamda topshiriq muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir aviator intizomni o'zining kundalik hayotiy tamoyiliga aylantirishi lozim.

Bugungi yosh harbiy xizmatchilar ertangi kunning malakali uchuvchilari, muhandislari va qo'mondonlari hisoblanadi. Sizlarning bugungi mehnatingiz, mashg'ulotlardagi faolligingiz va xizmatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatingiz kelajakdagi muvaffaqiyatlaringizning mustahkam poydevorini yaratadi. Har bir o'quv mashg'uloti, har bir amaliy dars va har bir navbatchilik sizni haqiqiy harbiy mutaxassis sifatida shakllantirib boradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, harbiy aviatsiya nafaqat mudofaa vazifalarini bajaradi, balki tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar yoki qutqaruv operatsiyalarida ham aviatorlar birinchilar qatorida yordamga keladi. Bu esa aviator kasbining naqadar oliyjanob va xalqparvar ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Ajdodlarimiz jasorat, mardlik va Vatanga sadoqat borasida bizga boy meros qoldirgan. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi va boshqa buyuk sarkardalar Vatan himoyasini muqaddas burch deb bilgan. Bugungi harbiy aviatorlar ana

shu ulug' an'analarning munosib davomchilari sifatida yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi yo'lida xizmat qilmoqda.

Aziz askarlar va yosh harbiy xizmatchilar! Sizlar bugun Vatanimizning eng ishonchli tayanchlaridan birisiz. Harbiy aviatsiya sizlardan yuksak bilim, mustahkam iroda, matonat, fidoyilik va kasbga muhabbat talab qiladi. O'z oldingizga katta maqsadlar qo'ying, bilim olishdan to'xtamang, ustozlaringiz tajribasidan unumli foydalaning va har bir topshiriqni mas'uliyat bilan bajaring! Ana shunda siz nafaqat mohir mutaxassis, balki Vatanimizning haqiqiy himoyachisiga aylanassiz.

Yurtimiz osmonining musaffoligi, xalqimizning tinchligi va davlatimiz xavfsizligi siz kabi fidoyi harbiy xizmatchilarning xizmatiga bog'liq. Har bir aviatorning qalbida Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat va kasbga hurmat tuyg'usi mustahkam bo'lsa, mamlakatimiz osmoni doim ishonchli qo'riqlanadi.

Unutmang, Vatan osmonini himoya qilish bu nafaqat xizmat vazifasi, balki har bir aviator uchun yuksak sharaf, buyuk mas'uliyat va muqaddas burchdir.

**Podpolkovnik
Aleksandr SHAKIRJANOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti Harbiy aviatsiya
instituti o'qituvchisi**



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

ERTANGI KUN EGALARI

bugun tarbiyalanadi



O'sib kelayotgan yoshlar taqdiri jamiyatning eng nozik nuqtasi sanaladi. Chunki balog'at ostonasida turgan o'g'il-qizlar qaysi yo'lni tanlasa, ertangi kunning qiyofasi ham aynan shu tanlov bilan belgilanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, jinoyatchilikka moyil yoki ijtimoiy xavf guruhidagi yoshlar bilan ishlash oddiy vazifa emas – bu davlat xavfsizligi, jamiyat barqarorligi va millat kelajagi bilan bevosita bog'liq strategik masala hisoblanadi.

Bu yo'nalishda faqat nazorat yoki jazo bilan natijaga erishib bo'lmaydi. Chunki jazo qo'rquv uyg'otishi mumkin, ammo u qalbni o'zgartirmaydi. Bunda eng muhim vazifa yosh avlod ongiga yetib borish, uning qalbidagi ishonch uyg'otish, hayotga bo'lgan qarashini tubdan o'zgartirishdir. Ana shundagina tarbiya ta'sirga, ta'sir esa natijaga aylanadi.

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi, natijaga yo'naltirilgan tizimi shakllantirildi. Qo'mondonlikka biriktirilgan **25 ta tuman va 961 ta mahallada istiqomat qiluvchi 1 111 nafar yosh qamrab olinib, ular bilan quruq rasmiyatchilik emas, balki manzilli va individual ishlash yo'lga qo'yildi.**

Har bir yoshning hayoti qog'ozda emas, amalda o'rganildi: uning oilaviy muhiti, yashash sharoiti, ijtimoiy holati va xulq-atvori xonadonma-xonadon tahlil qilindi. Shu asosda umumiy yondashuv emas, balki har biriga mos, aniq ijtimoiy moslashuv dasturlari ishlab chiqildi. Natijada yoshlar sakkizta asosiy toifaga ajratilib, har biri bilan alohida ishlash mexanizmi yo'lga qo'yildi.

ortiq profilaktik, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbir o'tkazilib, yoshlarning huquqiy ongi va ichki immuniteti mustahkamlandi.

Bu jarayonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi alohida o'rin tutdi. Chunki faqat qonunni bilish yetarli emas – uni hurmat qilish uchun Vatanni sevish kerak. O'tkazilgan tadbirlarda yoshlarga nafaqat



intizom, balki mas'uliyat, daxldorlik, milliy qadriyatlarga sadoqat kabi tushunchalar singdirildi. Shu bilan birga, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, ta'limga jalb qilish, psixologik qo'llab-quvvatlash orqali hayotda o'z o'rnini topishiga yordam berildi.



Eng muhim jihat bu yondashuv faqat qog'ozda qolmadi. Amalg oshirilgan ishlar natijasida **1 111 nafar yoshning 451 nafari ijtimoiy xavf toifasidan chiqarildi. Yana 426 nafar yoshning muammolari to'liq hal etildi.** Bu shunchaki raqam emas – bu ulkan natija, muvaffaqiyat sanaladi. Chunki bu natija ortida taqdiri o'zgargan insonlar, o'z yo'lini topgan yoshlar turibdi. Shu bilan birga, 2 450 dan

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2026-yilda 7 921 nafar yosh Mudofaa vazirligi tizimiga biriktirilgan bu ishlarning keng ko'lami olayotganidan dalolat beradi.

Har haftaning payshanba kuni "Yoshlar bilan uchrashuv kuni" deb belgilangani esa rahbarlar va yoshlar o'rtasidagi masofani qisqartirib, muammolarni joyida hal qilish imkonini bermog'da.

Toshkent shahri misolida ham bu tizimning samarasi yaqqol ko'rinmoqda. Yunusobod, Shayxontohur va Chilonzor tumanlarida 251 nafar yosh bilan manzilli ish olib borilib, ularning 47 nafari xavf guruhidan chiqarildi. Bu to'g'ri yondashuv va uzluksiz e'tibor natijasi.

Bugun shakllangan mazkur tizim bir narsani isbotladi: yoshlarni jazo bilan emas, ishonch va e'tibor bilan o'zgartirish mumkin. Ularning qalbiga yo'l topilsa, jamiyat uchun xavf emas, tayanchga aylanadi. Eng katta yutuq ham shu – yoshlarning qarashlari o'zgaryapti ular jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zosi sifatida shakllanmoqda.

Xulosa o'rinda aytish joiz, yoshlar masalasiga befarqlik kelajakka befarqlikdir. Ularga qaratilgan har bir e'tibor, har bir sa'y-harakat ertangi tinchlik va taraqqiyotga qo'yilgan sarmoyadir. Shu yo'ldagi izchil ishlar esa barkamol, vatanparvar va mas'uliyatli avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Shahnoza SULTONOVA,
TOQQQ matbuot xizmati
bosh mutaxassisi



Kelajagimiz bunyodkorlari

Bugungi kundagi xavfsizlik va tahdid tushunchalari o'zining an'anaviy, klassik chegaralaridan butunlay chiqib ketgan. Agar o'tmishda xavf-xatar asosan jismoniy, ya'ni davlat chegaralarini qurol bilan buzib o'tish yoki to'g'ridan to'g'ri harbiy agressiya ko'rinishida bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, bu tahdidlar shakli va usullarini butunlay o'zgartirdi. Bugun "gibrid urushlar", "axborot urushlari" va mafkuraviy xurujlar birinchi o'ringa chiqdi.

Axborot va psixologik xurujlar: internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali "soxta axborot" tarqatish, jamiyatda vahima uyg'otish va davlat institutlariga nisbatan ishonchsizlikni shakllantirish.

Mafkuraviy tahdidlar: radikalizm, ekstremizm va xalqaro terrorizm g'oyalarining yoshlar ongiga yashirin yo'llar bilan singdirilishi. Milliy qadriyatlarni qadrsizlantirishga qaratilgan harakatlar.

Kiberxavfsizlikka doir tahdidlar: davlatning strategik obyektlari, bank-moliya tizimlari va ma'lumot bazalariga qilinadigan kiberhujum.

"Ommaviy madaniyat" ta'siri: yoshlarni o'zining tarixi, tili va madaniyatidan uzoqlashtirib, ularni faqat iste'molchi qatlamga aylantirishga qaratilgan madaniy ekspansiya.

Bunday sharoitda Vatan himoyasi faqatgina qo'lga qurol olib sarhadlarda turish emas, balki axborot makonida, g'oyaviy va ma'naviy frontda ham o'z pozitsiyasini qat'iy himoya qila olishni anglatadi. Dushmanni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan bugungi sharoitda eng kuchli qurol – bu yuksak tafakkur va mustahkam e'tiqod.

Vatanparvarlik hissi inson qonida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U oiladagi tarbiya, maktabdagi ta'lim va jamiyatdagi sog'lom muhit asosida tizimli ravishda shakllantiriladi. Zamonaviy harbiy-vatanparvarlik tushunchasi o'zgarib borayotgan voqelikka mos ravishda kengayib, o'zida bir qancha muhim omillarni jamlaydi:

1. G'oyaviy immunitet va tanqidiy fikrlash. Yoshlarimiz turli yot g'oyalarga qarshi tura olishi, internetdan olinayotgan axborotni tahlil qilib, oqni qoradan ajrata bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Vatanparvar inson o'z davlatining manfaatlarini har qanday minbarda va har qanday muhokamada aqlli, asosli faktlar bilan himoya qila oladigan shaxsdir.

2. Tarixiy xotira va milliy iftixor. O'z xalqining shonli o'tmishi va qahramonlarini bilmagan insonni vatanparvar qilib tarbiyalab bo'lmaydi. To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk sarkardalarimizning jasorati, shuningdek Ikkinchi jahon urushida xalqimiz ko'rsatgan matonat yoshlarimiz uchun doimiy ibrat maktabi bo'lishi zarur. Tarixiy qadriyatlarimiz yoshlar qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'usini uyg'otadi.



YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TAYYORLASHNING AHAMIYATI



3. Kasbiy va intellektual salohiyat. Bugungi kunda yurtni himoya qilish uchun faqatgina jismoniy kuchning o'zi yetarli emas. Zamonaviy Qurolli Kuchlar yuqori texnologiyalarga asoslangan bo'lib, u juda kuchli intellektual salohiyatli kadrlarga muhtoj. Dasturchilar, axborot xavfsizligi mutaxassislari, dron operatorlari, muhandis va ixtirochi yoshlar – bugungi kunning haqiqiy himoyachilari. Yoshlarimizning fanlarni chuqur o'zlashtirishi, til o'rganishi ham vatanparvarlikning amaliy ifodasidir.

Mamlakatimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha yagona, uzluksiz tizim yaratilmoqda. Ammo zamon talablaridan kelib chiqib, bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishimiz talab etiladi. Buning uchun quyidagi vazifalarga ustuvor ahamiyat qaratishimiz lozim:

Birinchiidan, ta'lim va amaliyot uyg'unligini ta'minlash. Maktab, kollej va litseylarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitish metodikasini butunlay yangilash kerak. Darslar quruq nazariyadan iborat bo'lib qolmasdan, interaktiv usullarga, virtual reallik texnologiyalariga va amaliy mashg'ulotlarga asoslanishi lozim. Yoshlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini chuqur o'rgatish hayotiy zaruratsidir.

Ikkinchiidan, harbiy sport o'yinlari va ommaviy sportni rivojlantirish. Yoshlar o'rtasida "Vatanparvarlar", "Shunqorlar", "Temurbeklar" kabi harbiy sport o'yinlari va musobaqalar qamrovini kengaytirish kerak. Bu kabi tadbirlar yoshlarni nafaqat jismonan toblaydi, balki ularda jamoa bo'lib ishlash, qiyinchiliklarni birgalikda yengish kabi irodaviy sifatlarni shakllantiradi. Sog'lom tana – sog'lom ruh va mustahkam iroda demak.

Uchinchiidan, zamonaviy harbiy texnologiyalarga qiziqishni uyg'otish. Harbiy qismlarda va yoshlar markazlarida "Robototexnika", "Aviamodellashtirish", "Kiberxavfsizlik" to'garaklarini ko'paytirish maqsadga muvofiq. O'smirlarimiz zamonaviy asbob-uskunalar, aloqa vositalari va sun'iy intellektning imkoniyatlari bilan yaqindan tanishishlari, ularni o'zlashtirishga intilishlari kerak.

To'rtinchidan, "Armiya va xalq – bir tan-u bir jon!" tamoyilini amalda ko'rsatish. Harbiy xizmatchilar, faxriylar va xizmat burchini bajarish chog'ida qahramonlik ko'rsatgan harbiylarning yoshlar bilan doimiy uchrashuvlarini tashkil etish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bolalar haqiqiy qahramonlarni kino ekranlaridan emas, balki real hayotdan ko'rib, ularga havas qilishlari kerak. Mudofaa tizimidagi islohotlar, armiyamizning qudrati va askarlarimizga yaratilgan sharoitlar haqida yoshlarga doimiy ravishda ma'lumot berib borish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligi va ertangi barqaror taraqqiyoti bugun biz tarbiyalayotgan yoshlarning qalbida qanday g'oyalar ildiz otishiga bevosita bog'liqdir. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqatgina armiya uchun askar tayyorlash emas, balki har qanday sharoitda Vataniga sadoqatli, jamiyat uchun foydali, ma'naviyati va mafkurasi sog'lom fuqaroni voyaga yetkazish demakdir.

Nasiba ALLAMURODOVA,
Harbiy aviatsiya instituti
o'qituvchisi

Yoshlar oyligi

“SHIJOAT VA G‘AYRAT” G‘OLIBLARI ANIQLANDI

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash va harbiy-amaliy ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan ishlar izchil davom etmoqda. Ana shunday muhim loyihalardan biri bo‘lgan “Shijoat va g‘ayrat” harbiy sport musobaqasining respublika bosqichi yuqori saviyada o‘tkazildi.



O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa hamda Sport vazirliklari hamkorligida tashkil etilgan mazkur musobaqa qisqa vaqt ichida mamlakatimiz yoshlari orasida katta qiziqish

uyg‘otdi. Yoshlarning jismoniy salohiyatini oshirish hamda ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat bo‘lgan ushbu musobaqa bir necha bosqichda o‘tkazildi. Avval mahalla, keyin tuman va shahar bosqichlari tashkil etildi. Ushbu saralash bosqichlarida g‘olib bo‘lgan jamoalar viloyat bosqichida ishtirok etib, eng kuchli jamoalar respublika finali yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Yakuniy bosqichda mamlakatimizning barcha hududlaridan tashrif buyurgan 14 ta jamoa o‘zaro bellashdi.

Respublika bosqichi Chirchiq garnizonida joylashgan harbiy qismda bo‘lib o‘tdi. Bellashuvlar harbiylashtirilgan shartlar asosida tashkil etilib, ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi, intizomi, jasorati, jamoada ishlash ko‘nikmalari va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati sinovdan o‘tkazildi.

Musobaqa dasturi turli yo‘nalishlarni qamrab oldi. Jumladan, ishtirokchilar jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha turnikda tortilish va press mashqlarini bajardi. Shuningdek, o‘quv granatasini uzoqqa uloqtirish, qisqa va uzoq masofalarga yugurish, AK-74 avtomatini qismlarga ajratish hamda yig‘ish, pnevmatik quroldan nishonga o‘q uzish kabi shartlarda o‘z mahoratlarini namoyish etdi. Ayniqsa, harbiy-amaliy ko‘nikmalarni talab etuvchi shartlar qatnashchilarning bilim va tayyorgarligini namoyon qilish imkonini berdi. Bellashuv davomida yoshlar nafaqat kuch va chaqqonlik, balki sabr-toqat, mas‘uliyat, aniqlik va tezkor fikrlash kabi muhim fazilatlariga ham ega ekanliklarini ko‘rsatdi.

Musobaqa ishtirokchilari orasidagi sog‘lom raqobat va yuqori kayfiyat tadbirning har bir jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi. Yoshlar o‘z hududi sharafi va jamoa g‘alabasi uchun munosib hissa qo‘shish maqsadida bor kuch va g‘ayratlarini safarbar etdi. Bu esa musobaqaning nomi bilan hamohang tarzda ishtirokchilarning shijoati va g‘ayratini yana bir bor namoyoish qildi.



Muallif suratga olgan





Bellashuvlar doirasida bir qator maxsus nominatsiyalar bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi. Xususan, turnikda tortilish, o'quv granatasini uzoqqa uloqtirish, qisqa va uzoq masofaga yugurish, AK-74 avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish hamda pnevmatik quroldan o'q uzish bo'yicha eng yaxshi natija ko'rsatgan ishtirokchilar alohida taqdirlandi.

Tantanali taqdirlash marosimida Mudofaa vazirligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Sport vazirligi va Milliy gvardiya rahbariyati ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar

mazkur loyiha minglab yoshlarni birlashtirgani, ularda Vatan taqdiriga daxldorlik hissini mustahkamlagani va harbiy xizmatga qiziqishni yanada oshirgani ta'kidladi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar natijasiga ko'ra, respublika bosqichida 3-o'rinni Xorazm viloyati yoshlari jamoasi qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlari jamoasiga nasib etdi. Birinchi o'ringa esa Andijon viloyati yoshlari jamoasi munosib deb topildi. G'olib va sovrindor jamoalar diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.



Eng muhimi, birinchi o'rin sohibi bo'lgan jamoa a'zolari uchun katta imkoniyat yaratildi. Ularga harbiy va harbiylashtirilgan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda belgilangan tartibda imtiyoz taqdim etildi. Bu esa yoshlarning harbiy sohada ta'lim olish va kelgusida Vatan

himoyachisi bo'lib yetishishi uchun muhim rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, musobaqada yuqori natijalarni qayd etgan jamoalar yetishib chiqqan mahallalar ham munosib rag'batlantirildi. Xususan, birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rin sohiblari vakillik qilgan mahallalarda zamonaviy sport maydonchalari barpo etilishi belgilandi. Bu tashabbus nafaqat g'olib jamoalar mehnatining munosib e'tirofi, balki mahallalarda ommaviy sportni rivojlantirish, yoshlarni sog'lom turmush tarziga keng jalb etish va kelgusida yangi iqtidorlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tadbirning badiiy qismi ham barcha ishtirokchilar va mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli hamda taniqli san'atkorlar ishtirokidagi konsert dasturlari, harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

"Shijoat va g'ayrat" harbiy sport musobaqasi yoshlarning jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlash, ularda vatanparvarlik, jasorat va mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlashga qaratilgan muhim maydon sifatida o'z ahamiyatini namoyon etdi. Eng muhimi, ushbu musobaqa mamlakatimizda Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan, bilimli, jasur va tashabbuskor yoshlar avlodi shakllanayotganini yana bir bor tasdiqladi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"



27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

O‘ZBEK HARBIIY MATBUOTI 34 yoshda

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar departamenti faoliyatiga nazar



**O‘zbekiston Respublikasi
milliy xavfsizligini
ta’minlashga doir prinsip
va yondashuvlardan kelib
chiqib, mamlakatimizning
harbiy sohadagi siyosatini
ochiq namoyon qilish orqali
keng jamoatchilikning harbiy
sohaga doir axborotlarga
bo‘lgan ehtiyojini qondirish
bugungi mediamakonning
dolzarb vazifalaridan
hisoblanadi.**

Bugungi tezkor zamon Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan imzolangan harbiy sohaga oid farmon va qarorlar ijrosini ta’minlash, xalq va armiya o‘rtasida sifatli muloqotni yo‘lga qo‘yish, harbiy islohotlar haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, milliy armiyamiz faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, shuningdek buyuk ajdodlar va milliy qahramonlar haqida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan mediamahsulotlarni tayyorlash, qo‘shinlar faoliyatining ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritilishining samaradorligini tubdan yaxshilash ishlarini sezilarli darajada oshirishni taqozo etmoqda.

Insoniyat bu dahri dunda ne-ne muhorabalarni boshdan kechirmadi. Odamning qo‘li qilichga yetgunicha tosh qurollar, nayza, o‘q-yoy, qalqonlarda jang qildi. O‘qotar qurollar-u to‘fanglarda uning xumorini bosa olmadi. Bugun esa qurol ko‘tarib chiqishda qahramonlik bo‘lmay qoldi. Tafakkurning jangovar yaratilari osmoni falak burjida hozir-u nozir.

Milliy armiyamizning axborot maydonidagi kechayotgan “jang”lar ham qizigandan qizidi. Qo‘lida mikrofon, kamera, fotoapparat va axborot tarmoqlarining barcha

zamonaviy vositalari bilan qurollangan harbiy jurnalistlar ham borki, ularni doim qiyin va mashaqqatli mashg‘ulotlar safida ko‘rasiz. **Xalq va armiya, davlat va jamiyat o‘rtasidagi mustahkam ko‘prik bo‘lib turgan maxsus saf – Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti safi.**

Bugun, Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunida ana shu safdagilar haqida so‘z yuritishni sharaflar va mas‘uliyat deb bildik.

Yaqin Sharq manzaralaridan xulosa chiqarsak, har soniyada tarqatilayotgan axborot, surat, videolar jamiyat ongini muttasil boshqardi, xalq kayfiyatini, jamoatchilik fikrini belgilab turdi. Shuning uchun ham axborot maydoni bugungi kunda ikkinchi emas, shubhasiz birinchi frontdagi muhim pozitsiyaga aylandi. **Ana shu safda harbiy jurnalistikaning ma’naviy poligoni – Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti turadi.**

Bugungi axborot makonida kuch tuzilmalari, harbiy jamoalar va keng aholi, ayniqsa yoshlarning xohish va istaklarini, harbiy sohadagi islohotlar va o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentining muhim vazifalariga kiradi. Bu borada jurnalistlar, muxbirlar, bloggerlarning harbiy qism va muassasalarga press-turlarini tashkil etish, ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazishiga ko‘maklashish, ular o‘rtasida vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ijodiy tanlovlar o‘tkazish, harbiy jamoalarning xalqaro harbiy musobaqalardagi ishtiroki, yutuqlarining keng yoritilishini ta’minlash, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida “Men g‘olib!” shiori ostida o‘tkazilayotgan jangovar

tayyorgarlikka doir tanlov va musobaqalarni, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi tadbirlarni keng targ‘ib qilish ishlari reja asosida bajarib kelinmoqda.

34 YILLIK BAYROQDOR...

O‘zbekiston Respublikasi mudofaa ishlari bo‘yicha vaziri – Milliy gvardiya qo‘mondonining 1992-yil 19-iyundagi 81-sonli buyrug‘iga binoan tuzilgan vazirlikning markaziy matbuot organi “Vatanparvar” gazetasi 1992-yil 24-iyundan oq-qora rangda haftasiga uch marta chop etila boshlangan. 2005-yil 48-sonidan to‘liq rangli sahifalarda, 2009-yilning 1-sonidan haftalik gazeta sifatida nashr qilina boshlandi.

2014-yilning 20-noyabrida “O‘zbekiston armiyasi” jurnali davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 2015-yildan 60 sahifali jurnal chop etila boshlandi.

Birlashgan tahririyat xodimlarining 1 nafari “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” unvoni, 1 nafari “Jasorat” medali, 1 nafari “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti, 8 nafari “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. “Vatanparvar” gazetasi 2009-yili “E’tirof” tanlovi g‘olibi, 2014-yili “Oltin qalam” xalqaro tanlovida 2-o‘rin sohibi, shuningdek 3 nafari xodimi “Oltin qalam” xalqaro tanlovining g‘olibi bo‘lgan.

Suratlar tahririyat arxividan olindi



Tahririyatning 2 nafari xodimi “Yilning eng faol jurnalisti” tanlovi g‘olibi, 2 nafari xodim “Yilning eng faol sport jurnalisti” deya e’tirof etilgan. Shuningdek, tahririyat 2012-yili “Vatan aziz, jasorat mangu”, 2013-yili “Eng ulug‘, eng aziz” tanlovlarida matbuot yo‘nalishida g‘olib va sovrindorlikka erishgan.

2012–2025-yillarda “Vatanparvar” kutubxonasi seriyasida “Buyuk ajdodlardan meros muqaddas Vatan”, “Oila – hayot gultoji”, “Axborot-psixologik xurujlar va tahdidlar”, “Vatan omon bo‘lsin”, “Qalqon qo‘shig‘i”, “Mangu jasorat”, “O‘zbekiston armiyasi obyektiv qarshisida”, “Armiya bilan hamqadam, hamnafas, hamfikir”, “Yangi O‘zbekiston – Yangi armiya” nomli kitoblar (jami 16 500 nusxada) chop etilib, Mudofaa vazirligi qo‘shinlariga tarqatildi.

Bugungi kunda “Vatanparvar” gazetasi hamda “O‘zbekiston armiyasi” jurnalini yurtimizdagi harbiy jurnalistikaning bosh bayroqdori, deb bimalol ayta olamiz. Ilk sondan to bugungacha bu nashr shunchaki axborot tarqatmadi, balki tarix yaratdi. Gazeta sahifalarida mamlakatimiz mudofaa tizimida kechayotgan islohotlar, armiya hayotining jo‘shqin yo‘li yoritib borildi.





“O‘zbekiston armiyasi” jurnali esa harbiy tariximizning muhim bo‘lagi – ko‘hna tariximiz, tarixiy jang san‘atimiz, sarkarda va qo‘rboshilarimiz – bir so‘z bilan aytganda, yuksak jangovar qiyofamizni yaratishda asosiy omil bo‘ldi. Jurnal malakali tarixchilar, harbiy ekspertlar, soha fidoyilarining tahliliy materiallari orqali mudofaa siyosatini belgilashda asosiy manbalardan biri bo‘ldi.

EFIRDAGI FRONT

Mudofaa vazirining 1995-yil 11-dekabrda direktivasiga muvofiq, vazirlikning harbiy studiya bo‘limi tashkil etilgan va unga O‘zbekiston MTRK “O‘zbekiston” telekanali bilan hamkorlikda “Vatanimga xizmat qilaman” ko‘rsatuvini tayyorlash vazifasi yuklangan. 2006-yilning aprel oyida “Vatanimga xizmat qilaman” ko‘rsatuvining nomi “Vatanparvar” nomiga o‘zgartirilgan. 2006-yilning may oyidan ko‘rsatuv O‘zbekiston MTRK “Yoshlar” teleradiokanali orqali efirga uzatila boshlagan.

2019-yildan faoliyat yuritib kelayotgan axborot-media boshqarmasi – bu milliy armiyamizning tasvirlardagi yuzi. U har hafta turli telekanallar orqali efirga uzatilayotgan **“O‘zbekiston armiyasi”, “Vatanparvar”, “Armiya sporti” kabi ko‘rsatuvlari bilan xalqqa yuzlanadi.**

“O‘zbekiston armiyasi” harbiylar hayoti, armiyadagi islohotlar, mashg‘ulot jarayonlari, davlat – xalq – armiya birdamligini ifoda etuvchi ko‘rsatuv.

“Vatanparvar” ko‘rsatuvi haftaning har yakshanbasida “Yoshlar” telekanali orqali efir yuzini ko‘radi. Undan o‘rin olgan “Fakt”, “Millat fidoyilari”, “Askar so‘zi”, “Harbiy qismda bir kun”, “Qonunchilikdagi yangiliklar”, “Armiya va yoshlar” kabi ruknlar tomoshabinga qo‘shinlarimizning qudrati, Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan harbiy siyosat, jangovar ruh va muhit haroratini bera oladi.

“Armiya sporti” da nafaqat sport, balki harbiy intizom va iroda kuchi keng targ‘ib

qilinsa, “So‘z harbiy sportchiga”, “Zamonamiz qahramoni”, “Bir sport tarixi”, “Sport tavsiyalari”, “Pillapoya”, “Sportga ilk qadam” kabi ruknlarda jismoniy tayyorgarlik orqali ruhiy barkamollikka erishishning samarali yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Bu tasvirlarning ortida – operatorlar, rejissyorlar, muharrirlardan iborat kreativ jamoa turadi.

HARBIY HAYOT QAYNOVIDA

Mudofaa.uz – bu axborot ummoni. U orqali armiya hayotiga oid jangovar mashg‘ulotlar, rasmiy tadbirlar, xalqaro forumlar, respublika miqyosidagi loyihalar, harbiy sport musobaqalari, ijtimoiy tadbirlar Telegram, Instagram, YouTube, Facebook, X va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali real vaqt rejimida tarqatiladi.

Ijtimoiy tarmoqdagi “Harbiy sportchi”, “Harbiy blogger” kabi maxsus loyihalar armiya hayotining kutilmagan va yorqin taassurotlarini xalqona ko‘rinishda yetkazib beradi.

Shuningdek, Telegram va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarda “Army News”, “Bilasizmi?”, “Huquqiy maslahat” loyihalari muntazam joylashtirilib boriladi.

Harbiy jurnalistlar bayramlar-u dam olish kunlarida ham ana shu front ichida. Ular armiyamizning tom ma‘nodagi yuzi, so‘zi, ovozi... **Ularning betinim faoliyatini, uyg‘oq yuragini “Vatanparvar” gazetasi, “O‘zbekiston armiyasi” jurnali sahifalarida ko‘rasiz, “Vatanparvar” ko‘rsatuvida tomosha qilasiz, mudofaa.uz saytida o‘qiysiz.**

Tabrik o‘rnida. Bugun qurollar o‘rnini tafakkur, o‘qlar o‘rnini so‘z egalladi. Milliy armiyamizning so‘z bilan qurollangan jangchilari – harbiy jurnalistlar aynan shu maydonda xizmat qilmoqda. Ular armiya va xalq ichida turib so‘z bilan, tasvir bilan tarix yozmoqda. Doim e‘zozga, e‘tirofga, iftixorga munosib bo‘lgan muqaddas safdagilar, bayramingiz muborak bo‘lsin!

“Vatanparvar” TAHRIRIYATI



HARBIY MATBUOTCHILAR

Sizlar harbiy matbuotchilar,
Vatanparvar targ‘ibotchilar.
Chekinmoq yo‘q, yurasiz olg‘a,
Goh poligon, gohida tog‘da.

Tun-u tongning farqi yo‘q sizga,
Burchingizni oqlashdan o‘zga.
Botirlarga doim yo‘ldoshsiz,
Harbiyga xos metin bardoshsiz.

Nur ustasi, muxbir, tasviri,
Har birining zahmatli burchi.
Vazifangiz zalvari yuksak,
Mahorat-u matonat kerak.

Gazet, jurnal, oynayi jahon,
Maqsadingiz aylaydi bayon.
Dunyo tinglar aytar so‘zingiz,
Haq yo‘lida qolar izingiz.

Ne xavf kelsa, aziz tuproqqa,
Harbiy kuchlar turar oyoqqa.
Mardlar bilan turib bir safda,
Har sinovda siz kamarbasta.

Virus, ofat, ne xavf-u xatar,
Irodangiz bukolmas azal.
Kerak chog‘da metin qoyasiz,
Olmos yanglig‘ chin himoyasiz.

Harbiylarga bo‘lib yelkadosh,
Tinchlik deya ko‘tarasiz bosh.
Mardlik ilmin etasiz talqin,
Har so‘zingiz zalvarli, chaqin.

Goho ko‘kda olasiz tasvir,
Goho janggoh bo‘ladi manzil.
Goho sahro, goho cho‘ldasiz,
Doim bedor, doim yo‘ldasiz.

Qurolingiz – qalam, oq qog‘oz,
Tasvir, targ‘ib, kasbiga ixlos.
Musahhihlar to‘kar ko‘z nurin.
Suxandonlar so‘zining durin.

Vatan uchun shaysiz, bedorsiz,
Ezgulikka umri nisorsiz.
Targ‘ib etmoq burchingiz axir,
Fidolarsiz, kasbida mohir.

Sizlar harbiy matbuotchilar,
Vatanparvar targ‘ibotchilar.
Jasoratdan so‘zlaysiz biyron,
Ahli zamin yashasin omon!

Zulfiya YUNUSOVA



Kasbga fidoyilik

E'tibor bersam, ko'pchilik hamkasblarimizning o'z faoliyatlari aks etgan kitoblari chiqibdi. Bu haqda o'ylab yurganimga ham ko'p bo'ldi, biroq o'ydan nariga o'tgani yo'q. Mening jurnalistikadagi yo'lim ularniki kabi jo'shqin, qiziqarli voqealarga boy emas-da, degan andisham ham bor. Va, ba'zan ortga boqib, biz bosib o'tgan yo'llar ham arzirli ekanini his qilaman.

“MEN HARBIY JURNALIST”



Inson yaralibdiki, ko'ngil kechinmalarini, g'am-anduhlari, quvonchlari, orzu-umidlarini yuragidan tashqariga chiqarmoqqa intiladi. Toshlardagi bitiklar, suvratlar, aytilmalar, dostonlar shunday yaralgan. Yozuvning kashf etilishi esa eng, eng buyuk hodisadir. Odamlar (*Yer yuzidagi hamma bo'lmasa ham*) o'qish, yozishni o'rgandi. Ular orasida alohida iqtidor, iste'dodla siylanganlar borki, ular dunyo tamadduniga beqiyos madaniy boyliklar bilan hissa qo'shdi.

Dunyo tamadduniga da'vomiz yo'q. Ammo shu yurt uchun jonfido insonlarni elga tanitishdek ezgu ishlarga bizning ham kichik bo'lsa-da, hissamiz bor.

Ehsonning turi ko'p deyishadi. Shulardan eng go'zali, qo'limizda bo'lgani, hammaning ham imkoniyati yetadigani – bu bir inson yuzidagi tabassumga sabab bo'lish! Sizga ham oddiy tuyuldimi? Aslida, unchalik ham oddiy emas. Ayniqsa, odamlar bir-biridan uzoqlashib borayotgan, qo'llaridagi bir parcha “olam” asiri bo'lib qolayotgan ayni davrda bu anchagina murakkab deysish mumkin.

Kasb bayramimiz munosabati bilan biz ham So'z orqali ehson qilguvchilar safida ekanimizni aytish nokamtarlik bo'lmas. So'zdan o'tkir qurol yo'q. So'zdan o'tar malham yo'q. So'z nainki odamlar, davlatlar o'rtasida ham nizolarga sabab bo'ladi. So'z eng yuksak tuyg'ularni tanitadi. Qur'oni karimning o'zbek adabiy tilidagi ma'no tarjimasida bir o'rinda So'z azobni ifodalagan.

Bizga ham millionlar orasida So'z aytish saodati nasib etdi. Va uni imkon qadar yaxshilik yo'lida ishlatishga intilib kelyapmiz. Qayerdadir tanqid qildik, qayerdadir e'tirof etdik. Har birida ham maqsadimiz elga halol xizmat va yaxshilar xabarini bermiq bo'ldi.

Bir necha yillardan beri harbiy jurnalistika yo'nalishida qalam tebratib kelyapman. Professional ijodkorlar jamoasining meni qabul qilganlarini omad deb bilaman. Mustaqil O'zbekistonning ilk mustaqil nashri bo'lgan “Vatanparvar” gazetasining shakllanishiga hissa qo'shgan katta ustozlar bilan yonmayon ishlaganimdan, ularning qimmatli saboqlarini olganimdan faxrlanaman. Xatolar ham qildim, tuzatdim, yozganlarimni e'tirof etsalar, yer-u ko'kka sig'may quvondim. Iztirolar chekdim, do'stlar qo'llovidan boshimni tik tutdim. **O'tgan yillar – mening yillarim, yaxshidir, yomondir qo'limda qalam bilan bir yo'lni bosib o'tdim. Bir inson, bir ayol, bir ijodkor yo'li – mening yo'lim!**

Ortga boqsam, eslashga arzirli voqealar bor. Milliy armiyamizda kechayotgan islohotlar, o'zgarishlar ichida yashadik. Ha, ha, yashadik! Milliy armiyamizning professional asosda shakllanish yillari... eng kichik voqea, yo'q-yo'q, eng kichik voqea bo'lmagan, ulkan o'zgarishlar amalga oshirilgan.

Ofitserlar tarkibini qo'yaturaylik, birgina muddatli harbiy xizmat turini olib ko'ring. Eski sovet tuzumining eng ayanchli sarqiti “dedovshina”ga barham berilgani kichik voqea emas! Muddatli harbiy xizmat muddatining qisqarib borishi, bir yil muddatga tushirilgani, oylik maoshlari, oliy o'quv yurtlariga kirib o'qishlari uchun imtiyozlar, ularning ilm olishlari, kasb egallashlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar... Aqlni shoshirar darajada yangiliklar ko'p ediki, haftada uch bora chiqadigan gazetasining oldindan belgilangan rejalari o'zgarib ketardi. Va biz ularni to'lib-toshib, o'quvchilarimizga, xalqimizga yetkazar edik.

Askarlar... Ular haqda kichik lavhalar tayyorlaganimiz. Ko'p yozganmiz. Adashmasam, 2009-yili edi, muddatli harbiy xizmatni belgilangan muddatini o'tab bo'lib, oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan talabalar hayotidan turkum maqolalar tayyorlaganimiz. Shunda, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida o'qiyotgan bir yigit askarlik vaqti u haqda gazetada maqola e'lon qilingani, o'sha bir parcha maqolani onasi hamon sandiqda asrab-avaylab kelishi haqida gapirib bergandi. O'sha paytda u qadar hayajonlanganimni eslay olmayman, negadir oddiy voqeadek qabul qilibman. **Yillar berisida turib, o'sha parchagina maqola bir onani qanchalar sevintirgani, sarg'ayib ketgan esa-da, qadrli buyumlar qatorida saqlanganini o'ylab, ko'nglim yorishadi. Chunki uning muallifi men edim.**

O'zidan qoniqmaslik hissi ko'pchilikda bo'lsa kerak. Ba'zan mendan yaxshi shifokor ham chiqar edi, deya o'ylab qolaman. Ammo yuqorida keltirganim kichik parcha meni ham sevintirgani rost. Jurnalist kasbini sevib tanlaganman. Yangilishdimni, degan o'ylarga ham borganman. Agar boshqa kasbni tanlaganimda ham yozishda davom etar edim.

Gazetalar umrini yashab bo'lgani, odamlar gazetadan tobora uzoqlashib borayotgani haqida ko'p gapiriladi. Rivojlangan dunyo esa buning tamoman aksini ko'rsatadi. Haliyam gazetalar o'qilyapti.

...Surxondaryodan qo'ng'iroq bo'ldi. Zaxiradagi podpolkovnik To'lqin Mamataliyevning rafiqasi Shahodat Omonova ekan. “Vatanparvar” gazetasini qidirib, topa olmayotganlari, eski sonlarini topib, o'qib, menga telefon qilgan ekan. Uning To'lqin aka xastalanib qolgani, gazetani keltirib berganlarida uni silab-siypalab, xotiralarga berilgani, “Matonatli ayollar” maqolasini

o'qib berganida ko'zlariga yosh olgani haqida hayajonli gaplaridan qattiq ta'sirlandim. **“Vatanparvar” gazetasining tarixi Qurolli Kuchlar tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy armiyamiz tamal toshini qo'yishda bor bilim va kuchlarini ayamay xizmat qilgan insonlarning oldi qutlug' yoshlarga yetdi. Ular ham armiya saflarida kechgan shonli yillarini xotirlaganda, so'zsiz, qadrdon gazetalarini ham eslaydi. Chunki bu gazeta o'sha fidokorlarimiz harbiy hayotining ham bir qismidir.**

Bir voqea hech esimdan chiqmaydi. Qurolli Kuchlar faxriylarining tadbirida ulardan biri aytib qoldi: **“Men hech qachon “Vatanparvar” ko'rsatuvini uy kiyimida o'tirib ko'rmayman, albatta harbiy kiyimlarimni qoidaga mos ravishda kiyib, keyin ko'raman. Rafiqam ham shunday...”**

Hayrat! Uni birov majbur qilgani yo'q. Zaxiradagi ofitser ko'rsatuvni tomosha qilish barobarida hayotining eng jo'shqin yillarini bag'ishlagan Qurolli Kuchlarimizga ehtiromini ko'rsatyapti.

Ha, bizni o'qishyapti, ko'ryapti. Shunga yarasha biz ijodkorlar ham ularga sifatli materiallar taqdim qilaylik. Endilikda avj olib borayotgan ko'chirmakashlikdek eng xunuk illatdan hazar qilib, haq so'zni yetkazaylik. Ezgulikka xizmat qiladigan yorqin, samimiyatga to'la ko'rsatuvlar, maqolalar, lavhalar tayyorlash uchun sidqidildan mehnat qilaylik. Bugun dunyoning eng kuchli qurollaridan biri ham SO'Z! So'z bilan ko'ngillarni zabt etaylik, So'z bilan vatanparvarlikdek eng ulug' tuyg'uni qalblarga singdiraylik.

Kasb bayramimiz muborak bo'lsin, aziz hamkasblar!

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

✓ "Eng yaxshi kitobxon" tanlovi nomzodlariga

ERK DEB URGAN YURAK

Suratlar internetdan olindi

"Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o'quylik. Adiblar yetishdirayluk, "adabiyot kechalari" yasayluk. Ruh, his, tuyg'u, fikr, ong va o'y olayluk, bilayluk. Agarda "bayoz" va bema'ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahv-u inqiroziy bo'lurmiz. Yuragimiz kundan kun toshdan ham qattig' bo'lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo'lmayluk".

Bu so'zlar XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, ma'rifatparvar shoir Abdulhamid Cho'lponning "Adabiyot nadir?" maqolasidan olingan o'lmas chaqiriqdir. Jadid bobolarimiz qalbni uyg'otish va millatni zulmatdan qutqarishning eng kuchli quroli deb adabiyotni bilishgan. **Ularning orzusi – har bir yurakda so'nmas ma'naviy iz qoldirish edi. Zotan, uyg'onganlarning vazifasi uyg'otishdir.**

Adabiyotsiz, kitobsiz yashayotgan odamlarga rahmim keladi. Dunyoga kelib, bir nigohning o'zi bilan yashab o'tmoqdalar. Aslini olganda, dunyo bir qarashda ham go'zal, ammo boshqa nigohlar topgan hayratlarni siz topa olmasligingiz mumkin. Bu tuyg'ularni, ko'rishning birgina yo'li esa adabiyotdir, kitobdir. Odam aql-idroki bilan velosiped yaratdi, samolyot yaratdi. Boringki, bir asar yozdi. Kitob o'qigan odam qayta qurishdan saqlanadi, yangilikka intiladi. Zotan, velosipedni qayta kashf qilish bizga kerak emas.

Bugun "Men mashina yaratdim" degan odamga ham hayrat bilan qaraydigan zamonlar o'tdi. Texnologiyalar asrida yashayapmiz, har kuni bir yangilik, telefon, sun'iy idrok, va hokazo. Bugunning odamini bunaqa narsalar hayratga solmay qo'ydi. Sovuqlik bilan qarab, nari borsa, yaxshi deyishga yaraydi. **Ammo adabiyot hech qachon eskirmaydigan, hayratni o'ldirmaydigan kuchdir. Bejiz jadid bobolarimiz "Adabiyot yashasa, millat yashaydi" deya bot-bot takrorlamagan.**

So'zimni muxtasar qilib, maqsad-u muddaomga o'tsam. Yigirmanchi asr adabiyotining yirik namoyandasi, millat oydinlaridan

bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon ijodi haqida biroq to'xtalmoqchiman. Aslini olganda, bu ijodkor haqida shunchaki gapirib bo'lmaydi. She'rlarini tahlilga tortish hammaga ham emas. Cho'lpon ijodi shunday ajib va hech kimga o'xshamas yo'li, uning tag ma'nosiga yetib bormagan odam "yaxshi she'r ekan" deyishi mumkin. Ammo bu she'rlarning asl ma'nosini anglagan inson ko'zyoshlar ummoniga g'arq bo'lib, tariximizning qonli o'tmishi, sovetlar zumliga qarshi baralla aytilgan isyon ekanini anglaydi. Gul haqida so'zlab turib, butun millat ahvolidan xabar beradigan bu she'rlar shoirning yurak qonidan to'kilgan hasratlaridir. So'z isboti o'laroq,

**Binafsha senmisan,
binafsha senmi –
Ko'chada aqchaga sotilgan.
Binafsha menmanmi,
binafsha menmi –
Sevgingga, qayg'ungga
tutilgan?**

Xo'sh, binafsha obrazi bu yerda qaysi ko'rinishda yuz ko'rsatmoqda. Hammamiz bilgan bedazor, ariq yoqalarida o'sgan gulmi yo ism, yoki butun boshli yurtning holidan darak beryaptimi? Mendan so'rasangiz, binafsha Vatan deb javob beraman. Sovet jallodlari kelib, yurtimiz tuproqlarini bulg'ab yurgan bir paytda shu yurtning o'zidan chiqqan dallollar Vatanini pullashga urinishiga jim qarab turolmagan shoirning isyonidir, bu. Ochiq yozsa ham bo'ladi, ammo zulmkorlar qildan qiyiq axtarib yurgan paytda ochiq aytish boshni kundaga qo'yish bilan barobardir. Adabiyotning, she'rning kuchi ham aslida mana shu yerda o'z vazifasini ko'rsatmoqda. Vatanni go'zal va ojiz binafsha ko'rinishida tasvirlab beryapti.

Abdulhamid Cho'lpon she'riyati insonni uyg'oqlikka, erkka chorlaydi. Nima uchun yashayabsan, degan savolni qo'yadi oldingga. Odam yuz yil, boringki, undan ham uzoqroq yashashi mumkindir, ammo yashashning o'zigina kifoya emas-da. Qanday yashash ham muhim bu dunyoda. Abdulhamid Cho'lpon chinakam o'zbekning jonkuyari, millat fidoyisidir.

Bugun bilan taqqoslab qarasak, millat oyдини, qaysidir allambalo medal sohiblari ko'paymoqda

oramizda. Hech o'ziga savol nazari bilan qararmikan, men Vatan uchun nima qildim deb? Millat uchun nima qildim deb? Jadid bobolar tutgan yo'lining yuzdan birini yurdimmi, ikki insonni boshini bir qilib, haqiqat va Haqning xizmatkori qildimmi, degan savolni oldiga qo'yishganmikan, Xudo biladi...

Abdulhamid Cho'lponning "Ko'ngil" she'rida mujassam bo'lgan dardlarning yuki har she'rda ham ko'z ochavermaydi.

**Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha
sustlashding?**


**Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?**

**Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan.
Kishan kiyma, bo'yin egma
Ki, sen ham hur tug'ilgansan!**

She'rda bir qarashda ko'ngilga murojaat qilingandek ko'rinsa-da, bu so'zlar xuddi xalqqa, millatga qarata aytilgandek. "Kishan kiyma, bo'yin egma", deya xalqni ozodlik, hurlikka da'vat etmoqda shoir. "Tiriksan, o'lmagansan" deya hayqirayotgan odamni ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Go'yo shoir uyma-uy kirib, aytib yurgandek bu gaplarni. Uyg'oqlikka chorlayotgan jarchining chorlovidir, bu she'r.

Abdulhamid Cho'lpon ijodi nafaqat o'z davrining, balki bugungi kunning ham eng ulug' ma'naviy maktablaridan biridir. Uning she'rlari insonni fikrlashga, uyg'onishga, erkinlik va haqiqat uchun kurashishga chorlaydi. Shoir har bir satriga millat dardini, Vatan muhabbatini va ozodlik sog'inchini jo etgan. Shuning uchun ham Cho'lpon asarlari oradan qancha vaqt o'tmasin, o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi.

**Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"**



✓ 26-iyun – Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni

GIYOHVANDLIK – JAMIYAT TARAQQIYOTIGA JIDDIY XATAR

Ayniqsa, globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda giyohvandlikning yangi ko'rinishlari, sintetik narkotik vositalarining paydo bo'lishi hamda ularning internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilishi ushbu muammoga qarshi kurashni yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Eng achinarlisi, bu illat jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlami bo'lgan yoshlar ongini zaharlab, ularning maqsadlari va kelajagiga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, giyohvand moddalarni iste'mol qilish oqibatida inson organizmida qaytarib bo'lmaz o'zgarishlar yuzaga keladi. Avvalo, markaziy asab tizimi zararlanib, fikrlash qobiliyati susayadi, ruhiy holat izdan chiqadi, turli kasalliklar rivojlanadi. Eng achinarlisi, ushbu "balo"ning domiga tushgan shaxs nafaqat o'z hayotini, balki yaqinlari va oila a'zolarining ham taqdirini xavf ostiga qo'yadi.

Ayniqsa, yoshlar orasida ushbu illatning tarqalishi muammoning qanchalik darajada jiddiy ekanidan dalolat beradi. Hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan ayrim yoshlar qiziqish, tengdoshlar ta'siri yoki turli yolg'on va dalarga uchib, giyohvand moddalar domiga tushib qolmoqda. Natijada ularning ta'lim olishi, kasb egallashi va jamiyatda munosib o'rin topish imkoniyatlari keskin kamayadi. Birgina giyohvandlik sababli o'z orzu-maqsadlaridan voz kechishga majbur bo'lgan yoshlar taqdiri bu illatning naqadar xavfli ekanini yaqqol namoyon etadi.

Har qanday davlatning qudrati, avvalo, uning sog'lom va ma'naviy barkamol fuqarolari bilan belgilanadi. Shu bois yoshlarni turli yot g'oyalar va zararli illatlardan himoya qilish, ularning qalbida vatanparvarlik, qonunga hurmat va sog'lom turmush tarziga intilish tuyg'ularini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ham giyohvandlikka qarshi kurashish, narkotik vositalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish hamda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va ogohlilikni oshirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan narkojinoyatchilikning yangi shakl va usullari paydo bo'lib, mazkur tahdidga qarshi kurashishda huquqiy mexanizmlarni muntazam takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Shu bois qonun bilan Jinoyat kodeksiga "Aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan yangi bob kiritilmoqda. Bu esa davlatning mazkur masalaga

Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda davlatlar xavfsizligi va barqaror taraqqiyotiga tahdid solayotgan omillar qatorida giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish va uning savdosi bilan shug'ullanish millatning kelajagini yo'q qiluvchi xavf sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu illat endilikda faqat tibbiy yoki ijtimoiy muammo bo'lib qolmay, balki milliy va xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholanmoqda. Bu esa nafaqat bizni, balki jahon hamjamiyatini ham jiddiy tashvishga solmoqda.

faqat huquqbuzarlik sifatida emas, balki millat kelajagi va jamiyat barqarorligiga daxldor strategik xavf sifatida yondashayotganini ko'rsatadi. Yangi normalar orqali aholi, ayniqsa yoshlar salomatligiga zarar yetkazuvchi qilmishlar uchun javobgarlik choralari sezilarli darajada kuchaytirilmoqda.

Shu bilan birga, narkojinoyatchilikning zamonaviy ko'rinishlari ham inobatga olingan. Xususan, g'ayriqonuniy narkolaboratoriyalar tashkil etish, narkotik moddalarning noqonuniy muomalasiga rahnamolik qilish, bangixonalar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi qilmishlar uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilanmoqda. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatning oqibatlari bilan emas, balki uning manbalari va tashkiliy zanjiriga qarshi samarali kurashish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, narkotik vositalarning tarqalishi nafaqat alohida shaxslar, balki butun jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli 10 dan ortiq xavfli qilmish bo'yicha jazo choralarning og'irlashtirilishi profilaktik ta'sirni kuchaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda aholi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy qadam sifatida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida davlatimiz rahbari tomonidan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi qonun imzolandi. Ta'kidlanganidek, ushbu hujjat aholi salomatligini muhofaza

qilish, millat genofondini asrash hamda jamiyatni giyohvandlik bilan bog'liq tahdidlardan himoya qilishda muhim huquqiy asos vazifasini o'taydi. Bu esa davlatning mazkur muammoga nisbatan qat'iy va murosasiz yondashuvini yana bir bor namoyon etmoqda.

Qayd etilganidek, bugungi kunda narkovaziyatning xususiyati tubdan o'zgarib bormoqda. Avval asosan, an'anaviy giyohvandlik vositalari tarqalgan bo'lsa, hozirda sintetik narkotiklar ulushi ortib, ularni tarqatish usullari ham raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashib bormoqda. Internet tarmoqlari va messenjerlar orqali kontaktsiz savdo tizimining shakllanishi, shuningdek mamlakat hududida yashirin narkolaboratoriyalarning paydo bo'lishi ushbu sohada yangi yondashuv va ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni joriy etishni talab qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, yangi qonun loyihasida narkotik vositalar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasi ustidan nazoratni kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda. Xususan, davlat siyosatining yettita ustuvor yo'nalishi belgilanib, ular orqali aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish, davolash va rehabilitatsiya tizimini takomillashtirish hamda internet orqali sodir etilayotgan narkojinoyatlarga qarshi samarali kurashish maqsad qilingan.

Qonun loyihasining yana bir muhim jihati shundaki, mazkur sohada faoliyat yurituvchi davlat

organlarining vazifa va vakolatlari aniq belgilab berilmoqda. Bu esa mas'uliyatni taqsimlash, idoralararo hamkorlikni mustahkamlash hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonuniy muomaladagi narkotik va psixotrop moddalar harakatini raqamli texnologiyalar orqali kuzatib borish tizimini joriy etish nazarda tutilgan bo'lib, bu inson omilini qisqartirish va shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu kabi chora-tadbirlar nafaqat narkojinoyatchilikning oldini olish, balki uning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish, aholi orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va mamlakat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda aytish joizki, giyohvandlik va narkojinoyatchilikka qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki bu illat inson salomatligi, oila mustahkamligi, yoshlar tarbiyasi va mamlakat taraqqiyotiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bugungi sharoitda narkotik vositalarning tarqalish shakllari va usullari tobora murakkablashib borayotgani mazkur yo'nalishda zamonaviy yondashuvlar va ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni talab etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan qonunchilik islohotlari aholi salomatligini muhofaza qilish, millat genofondini asrash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan muhim qadam sifatida ahamiyat kasb etadi. Yangi qonunlar va huquqiy normalar orqali nafaqat narkojinoyatchilikka qarshi jazo choralari kuchaytirilmoqda, balki profilaktika, erta ogohlantirish, davolash, rehabilitatsiya va aholida giyohvandlikka qarshi barqaror immunitetni shakllantirish kabi masalalarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Eng muhimi, bu islohotlar inson qadrini ulug'lash, yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun xavfsiz muhit yaratish hamda mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zero sog'lom avlod va sog'lom jamiyat – har qanday davlatning mustahkam kelajagi va qudratining eng muhim kafolatidir.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



“Tib qonunlari” ning qoidalari

IBN SINO ASARLARIDA

sog'lom turmush tarzi

Husayn ibn Sino ilm-fanda ulkan ahamiyatga ega bo'lgan olamshumul yutuqlari va serqirra ilmiy merosi bilan dunyo sivilizatsiyasiga beqiyos darajada ta'sir ko'rsatgan tarixiy shaxs bo'lib, nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda o'z asarlari bilan mashhur bo'lgan allomadir.

Uning 5 jildidan iborat bo'lgan “Tib qonunlari” asaridan Yevropa universitetlarida asrlar davomida asosiy darslik sifatida foydalanilgan.

Quyida Ibn Sino asarlaridagi tibbiyotga, sog'lom turmush tarziga oid bilimlardan lavhalar keltirilgan.

Inson tanasining uchta holati mavjud: sog'liq, ya'ni tanada og'riq va o'zgarishlar yuz bermagan holat, kasallik, ya'ni tanada og'riq keltiradigan o'zgarishlar mavjud bo'lganda, o'tish davri – sog'liqdan kasallikka, ya'ni kasallik jarayoni, kasallikdan sog'liqqa, ya'ni tiklanish-sog'ayish jarayoni.

Kasallik va sog'liq sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin: ichish, iste'mol uchun ishlatiladigan oziq-ovqat, ichimliklar, havo, suv va tahorat olishda ishlatiladigan suv, inson yashaydigan uy, shug'ullanadigan kasb, yashaydigan mamlakat va hududning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek urf-odatlar va yosh. Buning sabablarini aniqlashda, ayniqsa oziq-ovqat va ichimliklar iste'mol qilish rejimiga, vujud va ruh tinchligiga, harakatiga, ilgari qabul qilgan dori-darmonlar hamda xalq tibbiyoti muolajalari va qo'llangan uqalashga e'tibor berish kerak.

Kasallik bilan birga keladigan belgilar – yuz terisining rangi o'zgarishi, soch to'kilishi va yoqimsiz hid paydo bo'lishiga e'tibor qaratish lozim.

Kasallikning uch turi ma'lum: tabiati-mizoji va yashash muhit muvofiqligining hamda vujud kuchlari o'zaro munosabatining va ularning uzluksiz harakati buzilishidan kelib chiqadigan kasalliklar.

Ko'pgina kasalliklar uchun rivojlanishning to'rt davri mavjud: boshlanish, kuchayish, rivojlanish va inqirozi tufayli pasayish davrlari.

Kasalliklar boshqa odamlarga yuqadigan, yuqmaydigan bo'lishi mumkin. Bizning vujudimiz atrofidagi havo sog'liq va kasallik sababi bo'lishi mumkin, bu uning tozaligi, sovuqligi, namligi va quruqligiga bog'liq. Ota-onadan bolalarga, nasdan naslga o'tadigan kasalliklar mavjud.

Vujud to'rtta xizmat kuchlariga ega: saqlash, jozibador, hazm qilish va chiqarib yuborish kuchlari.

Saqlash kuchi tanadagi foydali moddalarni ushlab turish, shuningdek ulardan vujudni oziqlantiruvchi moddalarni olish uchun mo'ljallangan. **Jozibador kuch** organizm uchun foydali bo'lgan ozuqa moddalarini jalb qilish uchun mo'ljallangan. **Hazm qilish kuchi** iste'mol qilingan, saqlanib qolgan moddalarni ozuqaga aylantirishga xizmat qiladi. **Chiqarib yuborish kuchi** yangi ozuqa moddalariga joy ochish uchun uning qoldiqlarini tashqariga chiqarib yuboradi.

Kasallik – hayotiy kuchlar ta'sirining buzilishi yoki inson mijozining g'ayritabiiy buzilishidan kelib chiqqan ichki a'zolarning g'ayritabiiy holati. Kasallik og'riq yoki tashqi ko'rinish o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi.

Ruh ikki kuchdan iborat: fahmlovchi va harakatlantiruvchi kuch.

Inson tabiatining holati har bir faslga mos bo'ladi. To'rt fasl – yoz, kuz, qish, bahor. Har faslda tashqi sharoitlar qo'shilmalari, birinchi navbatda, sovuq va issiqlik, quruqlik va namlik munosabatlari mavjud. Inson tabiati yilning ma'lum bir

vaqtiga to'g'ri keladigan tana kuchlarining munosabatlarini o'rnatadi. Ushbu munosabatlar nomuvofiqligi kasallikka olib kelishi mumkin.

Odatda, har bir faslning o'ziga xos xilma-xil ozuqalari vujudga ham to'g'ri kelishi kerak. Qish va yoz fasllari mavsumiy kasalliklari bilan ajralib turadi. Yoz yoki qishning erta boshlanishi, iqlim o'zgarishi kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Sog'liqqa zararli bo'lgan havo hududga va yil fasllari hamda shamol o'zgarishiga bog'liq. Har bir joy inson salomatligiga ta'sir qiladi. Juda issiq ham, sovuq ham hukmron bo'lmagan, fasllar muntazam ravishda o'zgarib turadigan joylarda yashash sog'liq uchun qulay. Salomatlik uchun yaxshi sharoitlar tog' va qirg'oqlar hududlari hisoblanadi. Juda issiq ob-havo va haddan tashqari sovuq bilan ajralib turadigan joylar sog'liq uchun afzal emas.

Uyqu va dam olish, uyg'oqlik va ularning to'g'ri almashinuvi salomatlikka ta'sir ko'rsatadi. Uyqu tabiiy kuchlarni mustahkamlaydi, aqliy kuchlarga dam beradi, charchoqni bartaraf qiladi. Uyquning buzilishi miyaga ta'sir qiladi, hatto aqlidan ozishga olib kelishi mumkin. Haddan tashqari ko'p uyqu lanjlik, ruhiy holatning pasayishi, befahmlikni keltirib chiqaradi. Uyg'oqlik ishtahani ochadi, ochlik sezgisini kuchaytiradi. Nomuntazam uyqu inson salomatligini buzadi.

Xavotir, g'azab va qayg'u, uyat insonning aql-idroki va zehniga ta'sir qiladi, tushkunlikka tushiradi, uning hayotiy kuchlarini keskin kamaytiradi. Oziq moddalar sifati va miqdori bilan inson tanasi holatini o'zgartiradi. Haddan tashqari ko'p ovqat hazm jarayoni sustlashishi, qabziyatga olib keladi. Juda semirib va ozib ketish – noto'g'ri ovqatlanishning belgilaridan biri.

Suv ozuqa moddalarining harakatini, ularning yumshatilishi va surilishini rag'batlantiradi. Suvsiz ovqatlanish mazkur jarayonlarni sekinlashtiradi. Eng yaxshi suv buloq suvidir, lekin hammasi emas, balki faqat toza tuproq ostidan chiqadigan buloq suvi. Oqmay turgan suv yomon xususiyatlarga ega. Qaynatish bilan suvning holatini yaxshilash mumkin. Bundan tashqari, suvni tindirib, idishdan idishga quyish va cho'kindidan tozalash orqali yaxshilash mumkin. Qo'rg'oshin quvurlar orqali oqadigan suv tanaga zararli, uni ishlatishdan saqlanish kerak. Oqmaydigan, botqoq suvi odamlar uchun zararli hisoblanadi.

Muntazam hammom va uqalash tananing tabiiy kuchlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Yuzni sovuq suv bilan yuvish yurak og'rig'i va hushdan ketish tufayli zaiflashgan kuchlarni quvvatlantiradi. Tekis tomir urishi tana kuchlari uyg'unligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Siydik va najas rangining o'zgarishi, xususan uning o'tkir badbo'y hidga ega bo'lishi tana faoliyati buzilganini ko'rsatadi. Ichaklarda ko'p yel paydo bo'lishi oshqozon va ichak faoliyati buzilganini ifodalaydi.

Salomatlik asoslari go'daklikdan boshlab shakllanadi. Chaqaloq hayotining ilk kunlaridan boshlab, mo'tadil davoli



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

xonada bo'lishi kerak, u sovuq ham, issiq ham emas, albatta toza bo'lsin. Qattiq yorug'lik chaqaloqqa zararli, ammo xona me'yori yorug' va keng bo'lishi kerak.

Sog'liqni saqlash uchun eng muhim vositalar – jismoniy mashqlar, ovqatlanish va uxlash tartibi. Bolani issiq suvda emas, iliq suvda yuvintirish kerak. Ona suti bilan ovqatlanishning tabiiy davri – 2 yil. Ortiqcha ovqatlanish kattalar uchun bo'lgani kabi bola uchun ham zararli. Bolaligidan boshlab, uning ruhiy holatlarini kuzatib borish, kuchli g'azab, qayg'u va uyqusizlikdan himoya qilish kerak.

Sog'liqda eng katta zarar ovqat hazm qilingandan keyin, oshqozon va ichakda qolgan ortiqcha chiqindilardir. Ularning chirishi kasalliklarni keltirib chiqaradi, butun vujudni zaharlaydi. Jismoniy mashqlar, harakatlar vujudni keraksiz chiqindilardan tozalashni rag'batlantiradi, ularning nojo'ya ta'siridan himoya qilishda yordam beradi.

Eng foydali mashqlar: yugurish, mushtlashish, kamondan otish, tez yurish, nayza otish, qilichbozlik, ot minish. Ko'krak qafasini harakatlantiruvchi, nafas olish va ovozi rivojlanish mashqlari juda muhim.

Ko'zlar uchun quyidagilar yaxshi mashqlar hisoblanadi: kichik jismlarga diqqat bilan qarash, yaqin atrofdagi buyumlarga diqqat bilan qarab chiqish va nigohni uzoqlarga qaratish.

Jismoniy mashqlar soni va kuchi turli odamlar uchun farq qiladi. Jismoniy mashqlarni boshlashdan oldin oshqozon, ichak va siydik pufagini bo'shatish kerak. Jismoniy mashqlar mushak va bog'lamlarni mustahkamlashga yordam beradi, o'z navbatida, vujudni mustahkamlaydi. Jismoniy mashqlarni boshlashdan oldin, tanani tozalash kerak. Jismoniy mashqlar tugagandan so'ng, albatta, yuvinish lozim.

Vujudning kuch-quvvatini saqlash uchun go'sht iste'mol qilish kerak. Eng yaxshi go'sht echki, yosh buzoq va qo'zilar go'shti. Go'shtni sifatli shirin sharob bilan iste'mol qilish lozim. Faqat ishtaha bilan ovqatlanish maqsadga muvofiq, shuningdek ishtahani hech qachon bo'g'maslik kerak. Sog'lom, aniq tabiiy ishtahadan soxta ishtahani, ochko'zlik, o'zini tuta olmaslik yoki oshqozonning nosog'lom qo'zg'alishi tufayli paydo bo'lgan istaklarni farqlash kerak. Ochlikka chidab, qiynalish oshqozon uchun zararli. Ochlikka chidash, bo'sh oshqozonni zararli ta'sir ko'rsatadigan omillar bilan to'ldiradi. Oshqozon uchun

eng zararli narsa – hazm bo'lmaydigan ovqatni iste'mol qilish. Ruhiy tushkunlik, shuningdek og'ir tana harakatlari to'g'ri hazm qilishga xalaqit beradi.

Boshning oyoqlardan balandroq holatda uxlash vujud uchun foydali. Agar odam juda ko'p ovqatlangan bo'lsa, u ertasi kuni och qolishi kerak va albatta, ko'proq yurish lozim. Uxlash vaqtining ozroq qismida chap tomon bilan, ko'proq qismida o'ng tomonda yotish kerak. Kechasi bir necha marta tana holatini o'zgartirishga harakat qilish kerak, ularning barchasi ovqat hazm qilishga yordam beradi. Oshqozonni ovqat bilan haddan ortiq to'ldirish zararli. Shunday ovqatlanish kerakki, tomir urishi va nafas olish harakati tezlashmasligi kerak.

Ovqatdan keyin, sharob ichish oshqozon uchun juda zararli. Avval suyuq, tez hazm bo'ladigan ovqatni, so'ngra sekinroq hazm bo'ladigan quyuq ovqatni iste'mol qilish foydali. Oshqozoni zaif odamlar yog'li ovqatlarni iste'mol qilishdan ehtiyot bo'lishlari kerak. Bir necha soat sarflab, juda uzoq vaqt ovqatlanish mumkin emas. Juda mazali taomning zarari shundaki, odam bunday ovqatni kerak bo'lgandan ko'proq iste'mol qiladi va oshqozonni zo'riqtiradi. Achchiq ziravorlar qo'shilgan ovqat ishtahani buzadi, oshqozonga zarar yetkazadi. Qisqa vaqt davomida ochlikka chidash foydalidir. Tashnalikka toqat qilish zararli.

Davolashning uch turi mavjud. Birinchisi – tartibli va to'g'ri ovqatlanish. Ikkinchisi – dori vositalaridan foydalanish. Uchinchisi – uqalash va harakat.

Samarali muolajalar qatoriga bemorning ruhiy holatini quvonish orqali yaxshilash va yaxshi odamlar bilan muloqot qilish orqali mustahkamlashni kiritish zarur.

Davolash usullaridan biri bo'shanishdir. Bu, ayniqsa, ko'p oziq-ovqat mahsuloti iste'mol qiluvchi va sovuq mamlakatlar aholisiga zarur. Vujudning sovishi va qizishi sog'liq uchun zararli. Tanani tozalashga xuqna va qusish orqali erishiladi. Har qanday kuchli charchash sog'liq uchun zararli.

Sog'lom tishlarni saqlab qolish uchun ularni ovqatdan so'ng darhol tozalash kerak. Issiq ovqat yoki ichimlikdan keyin, darhol sovuq ichimlik ichish kerak emas. Tish va milklarni kechasi atirgul yog'i bilan yog'lash kerak.

Inson ruhi mukammallikka intiladi. Ammo oliy darajadagi mukammallikka erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ruh qayg'uradi va qiynaladi.

A. RAHIMOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy tibbiyot instituti dotsenti, t.f.n.

Islahotlar samarasi

Yangi BINO — IMKONIYATLAR



Sirdaryo tumanida zamonaviy talablar asosida jihozlangan mudofaa ishlari bo'limining yangi ma'muriy binosi foydalanishga topshirildi.

Ochilish marosimida Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligi, tuman hokimligi, Guliston harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Sirdaryo viloyati kengashi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faxriylar, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.


Marosimda so'zga chiqqanlar mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash, harbiy boshqaruv organlari infratuzilmasini rivojlantirish va yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatiga to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng tadbir ishtirokchilari yangi binoda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, xizmat xonalari, majlislar zali hamda fuqarolarni qabul qilish uchun mo'ljallangan zamonaviy maskanlarni ko'zdan kechirdi.

Ushbu bino mamlakatimiz mudofaa salohiyatini oshirish, harbiy xizmatchilar uchun zarur sharoitlarni yaratish va faoliyat samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Qolaversa, harbiy xizmatchilarning kasbiy ko'nikmalarini yuksaltirish va o'quv mashg'ulotlarini yuqori darajada tashkil etish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur mudofaa ishlari bo'limida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida raqamlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasi yaratilgani alohida e'tiborga molik. Ushbu tizim chaqiriluvchilar va harbiy hisobda turuvchi fuqarolar haqidagi ma'lumotlarni tezkor va aniq yuritish, hujjatlar aylanishini soddalashtirish hamda xizmat faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.



Askar oilasi harbiy qismda

Oila va armiya — BIR MAQSAD YO'LIDA



Mamlakatimizda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oila institutini mustahkamlash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar harbiy jamoalarda sog'lom muhitni shakllantirish, harbiy xizmatchilarning yaqinlari bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Harbiy qismlar faoliyatining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash, oila a'zolarini harbiy xizmat sharoitlari, yaratilgan imkoniyatlar hamda shaxsiy tarkibning kundalik faoliyati bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan loyihalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sirdaryo tumanida joylashgan safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyonida "Askar oilasi harbiy qismda" loyihasi doirasida harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbir davomida askarlarning ota-onalari harbiy qismda yaratilgan sharoitlar, o'quv binolari, tibbiyot punkti, yotoqxona, panoramali otish sinflari hamda zamonaviy qurol-aslaha namunalari bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, harbiy qism mutasaddilari tomonidan harbiy xizmatchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jangovar va ma'naviy tayyorgarligini oshirish, hamda xizmatni samarali tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tushuntirishlar berildi.



Tadbirning badiiy qismi ishtirokchilarda alohida taassurot qoldirdi. Unda harbiy orkestr jamoasi hamda Sirdaryo tumani madaniyat markazi xonandalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Tadbir yakunida xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishib, o'zining fidokorona mehnati va namunali xizmati bilan tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari qism qo'mondonligi tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Qaror va ijro

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI

Korrupsiyaning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri nihoyatda jiddiy. Shu bois uni bartaraf etish, unga qarshi kurashish eng zarur vazifalar sirasidan. Aytish mumkinki, korrupsiya jamiyat hayotidagi "qora dog'" sifatida tavsifiy xarakterga ega. Uning domiga tushib qolish tahlikali holdir. Uning "jozibali jilvasi"ga asir bo'lish, qabohatga asir bo'lish bilan barobar. Chunki egri yo'llar bilan boylik orttirishdek manfur maqsad va hamkorlikning sirli qolishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy yil "Korrupsiyaga qarshi kurashda favqulodda yil" deb e'lon qilinishining o'zi ham mavzuning nihoyatda dolzarbligini ko'rsatadi.

Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi 683-sonli qonuni tahriri asosida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun yanada takomillashtirildi. Ushbu qonunda ko'zda tutilgan ba'zi jihatlarga to'xtalmoqchimiz.

Qonunda korrupsiya jinoyatlariga va ularning ildizlariga chuqur nazar tashlangan. Ulardan kelib chiqadiga xulosalar va bu jinoyatlarni bartaraf etish tamoyillari ochib

berilgan. Mazkur qonunning 3-moddasida "Asosiy tushunchalar"ga to'xtalib o'tilar ekan, unda korrupsiya nima va uning ildizlari nimadan oziqlanadi degan savollarga javob topamiz.

Korrupsiyaning jamiyatga eng katta salbiy ta'siri shundaki, bunda mansab yoki xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanishdek maqsad namoyon bo'ladi. Shu 3-moddada manfaatlar to'qnashuvi degan tushunchaga ham tavsif berib o'tilgan, ya'ni shaxsning shaxsiy manfaatdorligi lavozim yoki xizmat majburiyatlarini shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasidagi

qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatdir.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsipini ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

E'tiborli jihati shundaki, eng asosiy tayanch masala – har bir fuqaro o'z huquqini anglab yetishini shakllantirishdek ezgu maqsad jamiyat hayotida mustahkam o'rin egallashi kerak. Bu jarayonda huquq-tartibot organlari va ommaviy axborot vositalari hamkorligi qonunchilik targ'ibotini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim, ishlab chiqarish va boshqa muassasalarda uchrashuvlar, muloqotlar kabi tadbirlarni yanada kuchaytirish va maqsadli o'tkazish muhim.

Bir so'z bilan aytganda, qonunning har bir moddasidan korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini qonunchilik talablari asosida tashkil qilish va uni sobitqadamlik bilan amalga oshirish asosiy vazifa ekan o'z ifodasini topgan, desak, adashmaymiz.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi tashkil etilganki, u korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Muxtasar aytganda, qonunchilik talablariga har bir mansabdor shaxs amal qilishi shart. Zero unga o'sha mansab yoki lavozim xalqqa xizmat qilish uchun berilganini aslo unutmasligi kerak.

**Adliya mayori
Asliddin BOLTAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining katta yordamchisi**

Huquqiy targ'ibot

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa firibgarlik kabi jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi holatlarni bartaraf etishda aholi o'rtasida huquqiy ong va hushyorlikni kuchaytirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi joylarda davlat organlari hamkorligida keng qamrovli profilaktik tadbirlar izchil tashkil etilmoqda.

SAMARALI QALQON

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 24-boshqarmasi hamda Toshkent shahri Bektemir tumani hokimligi hamkorligida mahalla fuqarolar yig'ini raislari va yoshlar ishtirokida "Firibgarlikka qarshi kurash" mavzusida uchrashuv o'tkazildi. Unda fuqarolarni turli aldov va moliyaviy firibgarlik holatlaridan ogoh etish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, zamonaviy tahdidlarga nisbatan hushyorlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Chirchiq shahri prokuraturasi hamda harbiy prokuratura hamkorligida Kamolot va Kabutar mahallalarida tashkil etilgan profilaktik tadbir "Jinoyatni jilovlaymiz" shiori ostida o'tkazildi. Mazkur uchrashuvlarda aholi o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi murosasiz munosabatni

shakllantirish hamda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi hamda Chirchiq shahri prokuraturasi bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bilan ommaviy sayyor qabul o'tkazildi. Qabulda fuqarolarning murojaatlari atroflicha o'rganildi, ularga uy-joy va boshqa turdagi kreditlar olish tartibi, huquqiy kafolatlar hamda amaldagi qonunchilik bo'yicha atroflicha tushuntirishlar berildi.

Profilaktik tadbir doirasida "Sog'lom avlod" xayriya fondi hamkorligida harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va farzandlari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy

ko'rik ham tashkil etildi. Ko'rik jarayonida shifokorlar tomonidan ishtirokchilarning salomatligi har tomonlama tekshirilib, kasalliklarni barvaqt aniqlash, ularning oldini olish hamda sog'lom turmush tarziga rioya etish bo'yicha aniq va amaliy tavsiyalar berildi.

Xulosa qilib aytganda, bunday tadbirlar nafaqat jinoyatchilikning oldini olishga, balki aholida qonunga hurmat, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash – faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki har bir fuqaroning hushyorligi va daxldorligiga ham bog'liq.

**Dilshodbek FAYZIYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi murojaatlar bilan
ishlash boshqarmasi katta prokurori**

Profilaktik tadbir

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli harbiy qismda "Giyohvandlik – asr vabosi" shiori ostida davra suhbatlari tashkil etildi.



DAVR TALABI

Unda giyohvandlikning inson salomatligi va jamiyat hayotiga salbiy ta'siri, ushbu illatning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda profilaktik chora-tadbirlar haqida so'z bordi. So'zga chiqqan mutaxassislar giyohvandlik insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga, oilaviy muhitga hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'siri haqida ma'lumot berdi. Shuningdek, yoshlarni zararli odatlardan asrash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadbir davomida giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, mazkur turdagi huquqbuzarliklar uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari hamda

harbiy xizmatchilarning bu boradagi mas'uliyati yuzasidan tushuntirishlar berildi. Mavzuga oid videoroliklar namoyish etilib, ishtirokchilar mutaxassislarning tavsiyalarini tingladi.

Davra suhbatlari savol-javob va ochiq muloqot tarzida o'tdi. Unda harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, hushyorlik va ogohlikni oshirish, shuningdek giyohvandlikka qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish masalalari yuzasidan qimmatli fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadbir yakunida giyohvandlikka qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va yosh avlodni turli zararli illatlardan asrash barchaning muhim vazifasi ekan ta'kidlandi.

TOQQQ matbuot xizmati

Yong'in xavfsizligi

Farg'ona garnizonidagi harbiy qismda yong'in xavfsizligi bo'yicha ko'rgazmali-amaliy mashg'ulot tashkil etildi.



Tadbirda garnizon Yong'in nazorati inspeksiyasi hamda viloyat Yong'in xavfsizligi boshqarmasi mutaxassislari ishtirok etib, harbiy xizmatchilarga yong'inlarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish bo'yicha muhim tavsiyalar berdi. Mashg'ulot davomida



XAVFSIZLIK GAROVI

elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish qoidalarini, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi hamda yong'in sodir bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi lozim bo'lgan birlamchi choralar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi.

Mashg'ulotning amaliy qismida yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi, shartli yong'in o'chog'ini bartaraf etish usullari hamda jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi. Harbiy xizmatchilar

amaliy harakatlarni bevosita bajarib ko'rish imkoniyatiga ega bo'lib, mutaxassislardan o'zlarini qiziqitirgan savollarga atroflicha javob oldi.

Mashg'ulot davomida harbiy obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaldagi talablar va mas'uliyat masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu esa shaxsiy tarkibning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning amaliy tayyorgarligini yanada oshirishga xizmat qildi.

**Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

Xalqaro hamkorlik

Rahbar va yoshlar

O'ZARO MANFAATLI LOYIHALAR



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov boshchiligidagi delegatsiya xizmat safari bilan Yaponiya davlatida bo'ldi.

Safar boshida tashkilot delegatsiyasi O'zbekistonning Yaponiyadagi Favqulodda va Muxtor Elchisining ta'lim, fan va innovatsiyalar bo'yicha maslahatchisi Nodirbek Hoshimov qabulida bo'ldi. Uchrashuvda O'zbekistonga kunchiqar mamlakatdan investitsiya jalb qilinishida "Vatanparvar" tashkilotining ishtirokini kuchaytirish, jumladan bu mamlakatda vaqtincha ishlash istagida bo'lgan

yurtdoshlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasblarga tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

Keyingi uchrashuv "Onodera User Run" kompaniyasida o'tkazildi. Suhbat avvalida Husan Botirov mazkur kompaniya prezidenti Kato Junga Yaponiyaga taklif etgani uchun minnatdorlik bildirdi. Tomonlar joriy yilning aprel oyida Toshkent shahrida imzolangan Anglashuv memorandumini talablarining bajarilishini muhokama qildilar.

Ushbu Memorandumning maqsadi O'zbekistonda haydovchilik va avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish sohalarida professional ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash hamda ularni Yaponiyaga vaqtincha ishlash uchun yuborish bo'yicha hamkorlik qilishdan iborat.

Safar doirasida tashkilot delegatsiyasi Yaponiyaning yirik avtobus operatori hisoblangan "Willer Express" kompaniyasi prezidenti Koji Hirayama qabulida bo'ldi. Tomonlar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida kunchiqar mamlakat mehnat bozori uchun avtobus haydovchilari tayyorlanishi, bunga mos ravishda Toshkent shahrida zamonaviy o'quv avtodromi barpo etilishi hamda amaliy mashg'ulotlar uchun Yaponiyadan o'ng rulli avtobuslar olib kelinishi masalalarini muhokama qildi.

"Yoshlar oyligi" doirasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti hududiy kengashlarining raislari yoshlar bilan uchrashishda davom etmoqda.



KELAJAGIMIZ EGALARIGA E'TIBOR

Tashkilotning Romitan tumani o'quv sport-texnika markazida tashkil etilgan uchrashuvda Buxoro viloyati kengashi raisi Rustam Bayozov 150 dan ortiq yosh bilan ochiq muloqotda bo'lib, ularning sport va kasb-hunarga bo'lgan munosabati hamda rejalari bilan qiziqdi. Tumanning turli mahallalaridan kelgan yoshlarga "Vatanparvar" tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini

ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Tashkilotning Asaka shahri o'quv sport-texnika markazida Andijon viloyati kengashi raisi Ne'matilla G'ofurov bilan muloqotda bo'lgan yoshlar nafaqat o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldi, balki tashkilot va kelajak avlod o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga oid o'z taklif, mulohazalarini

bildirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Qiziriq tumanidagi bolalar musiqa va san'at maktabida o'tkazilgan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvda Surxondaryo viloyati kengashi raisi To'liqin Botirov tashkilotda kasb-hunar egallash va jismonan chiniqish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirdi. Tadbirda ishtirok etgan 100 dan ortiq yoshga ko'rgazmalar asosida bu imkoniyatlardan unumli foydalanish tartibi batafsil tushuntirildi.

O'zbekiston chempionati

ENG YAXSHI AVTOMODEL sportchilari aniqlandi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan Samarqand shahrida sportning avtomodel turi bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

Musobaqada 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar "TEMP", "AM-1", "AM-2" va "K-2" sinflarida, undan katta yoshdagi sportchilar esa "E-1", "E-2", "E-3" va "E-4" sinflarida o'zlar tomonidan yasalgan avtomodellar bilan ishtirok etdi.

Hakamlar sportchilar modellarining detallari va ularning harakatlanish tezligini sinchiklab o'rganib, tegishli baho berdi.

Do'stona va murosasiz kechgan bellashuv quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"AM-1" sinfi bo'yicha:

1-o'rin: Temur Meliqo'ziyev (Farg'ona viloyati);

"AM-2" sinfi bo'yicha:

1-o'rin: Behro'zbek Anvarov (Farg'ona viloyati);

"TEMP" sinfi bo'yicha:

1-o'rin: Platon Belovalov (Andijon viloyati);

"K-2" sinfi bo'yicha:

1-o'rin: Aleksandr Belovalov (Andijon viloyati);

"E-1" sinfi bo'yicha:

1-o'rin: Erkinboy To'ychiyoyev (Andijon viloyati);

"E-2" sinfi bo'yicha:

1-o'rin: Sergey Belovalov (Andijon viloyati);

"E-3" sinfi bo'yicha:

1-o'rin: Anton Belovalov (Andijon viloyati);

"E-4" sinfi bo'yicha:

1-o'rin: Aleksandr Belovalov (Andijon viloyati).

Jamoaviy hisobda:

1-o'rin: Andijon viloyati;

2-o'rin: Farg'ona viloyati;

3-o'rin: Buxoro viloyati jamoalari.

G'olib va sovrindorlar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Malaka

O'QUV-AMALIY SEMINAR

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida hududiy harbiy prokuraturalarda xizmat qilayotgan tergovchilar uchun navbatdagi o'quv-amaliy seminar bo'lib o'tdi.

Unda Andijon harbiy prokuraturasi tergovchilari ham ishtirok etdi.

Seminarni Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori Q. Isroilov kirish so'zi bilan ochib, tergov sifatini va tergovchilarning kasb mahoratini yanada oshirish borasida yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar, jabhani raqamlashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtaldi.

Shuningdek, seminarda rejalashtirilgan mahorat darslari, sohaga doir qator amaliy mashg'ulotlar, kazus yechish, test va boshqa sinovlarda faol bo'lish yuzasidan o'z tavsiya va ko'rsatmalarini berib o'tdi.

So'ngra tergovchilar bilan Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, mahkama xodimlari hamda boshqa hamkor tashkilot va idoralardan tashrif buyurgan mutaxassislar ishtirokida mahorat darslari, real sharoit va vaziyatlarga mo'ljallangan "Tergov poligoni"da amaliy mashg'ulotlar olib borildi.

Yakunda qatnashchilardan sinovlar qabul qilindi.

**Adliya polkovnigi
Ilhom MAMATQULOV,
Andijon harbiy prokurori**

Inson qadri uchun

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Bektemir tumani IIO FMBda tuman prokuraturasi, tashkilot va idoralar mas'ullari ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi.

QAROR IJROSI

Jarayonda Prezidentimizning 2026-yil 5-yanvardagi tegishli qarorlari ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli muhokama qilinib, mas'ullarning hisobotlari eshitildi hamda tegishli ko'rsatmalar berildi.

So'ngra mutasaddilar ishtirokida bozorlarda aholi va tadbirkorlar uchun yaratilgan sharoitlar, sanitariya va oziq-ovqat xavfsizligi, narx-navo barqarorligi hamda hududda va binolarda olib borilayotgan ta'mirlash ishlari ko'zdan kechirildi.

Shuningdek, Gulbog' va Chashma mahallalarida aholi uchun ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.

Jarayonda murojaatlarni joyida hal etishning amaliy choralari ko'rildi. Qabul davomida qonunchilik doirasida huquqiy tushuntirishlar berib o'tildi.

**Adliya mayori
Sardorxo'ja ABROROV,
Toshkent harbiy prokurorining
katta yordamchisi**

Asr vabosi

"FUQAROLIK BURCHIMIZ"

26-iyun – Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurashish kuni munosabati bilan Mudofaa vazirligi Maxsus avariya-tiklash boshqarmasida muddatli harbiy xizmatchilar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida giyohvandlikning inson salomatligi va kelajagiga salbiy ta'siri, uning og'ir ijtimoiy oqibatlar hamda yoshlarni bu illatdan asrashning ahamiyati haqida atroflicha fikr yuritildi. Uchrashuvda harbiy xizmatchilarga giyohvand va psixotrop moddalarning inson organizmiga yetkazadigan zarari, ularning jismoniy va ruhiy holatga ta'siri haqida tushunchalar berildi.

Shuningdek, internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan sintetik giyohvand moddalarning xavfi, ularga qarshi ogohlikni kuchaytirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari muhokama qilindi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, giyohvandlikka qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki ota-onalar, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari va keng jamoatchilikning ham muhim vazifasidir. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sport, kitobxonlik, ilm-fan va kasb-hunarga keng jalb qilish ushbu illatning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'mida aytish joizki, yoshlar – yurtimizning kelajagi va taraqqiyot tayanchi. Ularning sog'lom, bilimli va barkamol bo'lib voyaga yetishi barchamizning umumiy maqsadimizdir. Giyohvandlikka qarshi kurashish, ushbu illatning oldini olish va yoshlarimizni undan asrash har birimizning fuqarolik burchimiz hisoblanadi.

**Podpolkovnik
G'anisher PARDAYEV,
Maxsus avariya-tiklash boshqarmasi bo'lim katta ofitseri**

Askarlar forumi

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi hamkorligida "Askarlar forumi" o'tkazildi. Aytish kerakki, mazkur forum muddatli harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ular qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat, mardlik va fidoyilik kabi yuksak fazilatlarini mustahkamlashga xizmat qildi.

MAHORAT

sinovdan o'tdi



Forum doirasida harbiy qismlar o'rtasida sport hamda harbiy-amaliy yo'nalishdagi qator musobaqalar ham tashkil etildi. Ushbu bellashuvlar nafaqat kuch va mahorat sinovi, balki harbiy jamoalarda birdamlik, o'zaro ishonch va hamkorlikni

mustahkamlovchi muhim maydonga aylandi.

Merganlik musobaqalarida harbiy xizmatchilar o'zlarining aniqligi, e'tibori va kasbiy tayyorgarligini namoyish etdi. Har bir nishonga yo'llangan o'q askarning mahorati, matonati va puxta tayyorgarligining amaliy ifodasi bo'ldi.

Futbol va voleybol bo'yicha tashkil etilgan bahslar esa chinakam sport bayramiga aylandi. Maydonda kechgan keskin va qizg'in kurashlar davomida jamoalar nafaqat g'alaba uchun o'zlarini ko'rsatdi, balki jamoaviy

hamjihatlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash va sport madaniyatining yorqin namunalarini namoyon etdi.

Forum jarayonida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan seminar tashkil etildi. Unda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi va ijtimoiy himoyasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilar o'rtasida tajriba

almashish, xizmat faoliyatida erishilgan yutuqlar bilan o'rtoqlashish va o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, turli harbiy qismlarda xizmat qilayotgan muddatli harbiy xizmatchilarning samimiy muloqoti, fikr almashuvi va do'stona munosabatlari forumning eng muhim natijalaridan biri bo'ldi.

Forum yakunida o'tkazilgan musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritgan jamoalar va faol ishtirokchilar diplom, medal hamda esdalik sovg'alar bilan munosib taqdirlandi.

Katta leytenant
Axadjon JABBOROV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i

Qo'shaloq bayram muborak bo'lsin!

Bugun o'zining qutlug' sanasini munosib nishonlayotgan "Vatanparvar" gazetasining 34 yilligi hamda 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati kengashi jamoasi qizg'in tabriklaydi.

Niyatimiz – "Vatanparvar" gazetasi yana yuz yillab ziyo taratib boraversin, uning muxlislari-yu o'quvchilari ko'payaversin!

Sevimli gazetamiz – "Vatanparvar"ni qutlug' yoshi bilan chin dildan muborakbod etamiz!

Hurmatli tahririyat xodimlari! Ushbu qo'shaloq bayram xonadoningizga fayz-u baraka olib kelsin!

Bayramingiz qutlug' bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Sirdaryo viloyati kengashi jamoasi "Vatanparvar" gazetasi tashkil etilganining qutlug' 34 yilligi hamda 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlarini muborakbod etadi.

Barcha ommaviy axborot vositalari xodimlarini va harbiy jurnalistlarni kasb bayrami bilan chin dildan tabriklaymiz.

Sizlarga oilaviy baxt, tinchlik-xotirjamlik, ijodiy barkamollik tilaymiz!

Bayramingiz muborak bo'lsin!

34
yilligi



Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

YOSHLAR KAMOLOTIGA e'tibor qaratilmoqda

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi Uychi tumani o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasida ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida samarali natijalarga erishilmoqda.

Bugungi kunda markazimizda yoshlar uchun barcha kerakli shart-sharoitlar yaratilgan. Kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarimizning jismoniy, ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Yoshlar oyligi" doirasida hamda mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlab "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va yangi kelajak yaratamiz" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari tashkil

etilmogda. Yaqinda markaz jamoasi tashabbusi bilan tuman hokimligi, mudofaa ishlari, Yoshlar ishlari agentligi, Ma'naviyat va targ'ibot markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda "Gumbaz", "Navoiy" hamda "Qo'rg'oncha" mahalla fuqarolar yig'inlarida o'tkazilgan tadbirlar ham shunday ishlarimiz sirasidandir.

Shu kunlarda tashkilotimizda yoshlarning texnik va amaliy sport turlari bilan shug'ullanishlariga ham muhim e'tibor qaratilmoqda.



VATANPARVAR

BIR BO'LSAK - YAGONA XALQMIZ!

Uychi tumani O'STM NTM jamoasi "Vatanparvar" gazetasining tashkil etilganiga 34 yil to'lishi munosabati bilan tahririyat xodimlarini tabriklaydi.

Shuningdek, 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan ham muborakbod etadi.

Sizlarga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt va quvonch, yurtimiz ravnaqi yo'lidagi fidokorona mehnatingizda ulkan zafarlar tilaymiz!

Markazda "Havo multig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Motokross", "Karting" kabi seksiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Joriy yilning o'tgan oylari mobaynida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish rejasiga asosan, tuman miqyosida yoshlar ishtirokida bir necha bor sport musobaqalari tashkil etildi.

Tashkilotimizda ayni paytda "B", "BC", "BE", "CE" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari namunali tashkil etilgan. Buning uchun mavjud moddiy-texnik baza, avtomobillar parki, yangi avtodrom, o'quv xonalari, zamonaviy o'quv-mashq avtomobillari uyg'unlikda malakali haydovchilar tayyorlash imkonini bermoqda.

Kezi kelganda ta'kidlab o'tish joizki, ayni paytda markazda yoshlar bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, doimiy ravishda sport to'garaklariga jalb etilmoqda.

Muxtoralı MURODOV,
"Vatanparvar" tashkiloti
Uychi tumani O'STM NTM direktori



Sana

Harbiy qism tarixi bu shunchaki yillar zanjiri emas, bu Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilgan minglab insonlarning jasorati, matonati va sadoqati bilan yozilgan tirik solnomadir. Sharqiy harbiy okrugning Farg'ona garnizonida joylashgan harbiy qismning 35 yillik yubileyi ana shu sharaflı yo'lni yana bir bor yodga soldi.



SHARAFLI TARIX VA sadoqat maktabi

O'tgan 35 yil davomida harbiy qism Vatan sarhadlarini ishonchli himoya qilish, malakali harbiy mutaxassislar tayyorlash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va Qurolli Kuchlar salohiyatini mustahkamlash yo'lida munosib xizmat qildi. Bugun u boy tajriba, mustahkam an'analar va zamonaviy imkoniyatlarga tayangan holda mudofaa tizimining ishonchli tayanchlaridan biriga aylandi.

Tantanalı tadbır harbiy qismning o'tgan yillarini aks ettiruvchi videorolik va ko'rgazmalar bilan boshlandi. Unda Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligi vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar va mehmonlar ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar harbiy qism tashkil etilgan ilk kunlardan qo'mondonlik tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda fidokorona xizmat qilib kelayotganini alohida ta'kidladi. Harbiy qismning shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritilar ekan, har bir davrning o'ziga xos sinovlari va yutuqlari yodga olindi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida, harbiy qismning moddiy-texnik bazasi tubdan yangilangani, jangovar tayyorgarlik tizimi takomillashtirilgani harbiy xizmatchilar uchun zamonaviy sharoitlar yaratilgani alohida e'tirof etildi.

Ha, bugungi kunda harbiy qism zamonaviy infratuzilma, ilg'or o'quv-mashg'ulot tizimi va malakali mutaxassislari bilan ajralib turadi. Yaratilgan qulay xizmat va yashash

sharoitlari harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Yubileyning eng ta'sirli lahzalaridan biri faxriylar va yoshlar o'rtasidagi samimiy uchrashuv bo'ldi. Hayotini harbiy xizmatga bag'ishlagan faxriylar o'z xotiralari, tajribalari va hayotiy saboqlari bilan o'rtoqlashar ekan, bu hikoyalar yosh avlod uchun ruhiy kuch va ilhom manbaiga aylandi. Uchrashuv davomida Vatanga sadoqat, qasamyodga sodiqlik va xizmat sharaflı haqida muhim fikrlar bildirildi.

Tadbırda xizmat vazifalarini namunali ado etib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar munosib taqdirlandi. Ularga ko'krak nishonlari, faxriy yorliq va esdalik sovg'alar topshirildi. Bu e'tirof harbiy xizmatdagi fidoyilik va mehnatning qadrlanayotganidan dalolat beradi.

Tadbır davomida harbiy orkestr ijrosidagi vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo'shiqlar bayramga alohida ruh bag'ishladi. Musiqiy chiqishlar nafaqat tadbırning badiiy bezagi, balki Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularining ifodasi sifatida yangradi.

Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati bosh mutaxassisi



Armiya va yoshlar

HARBIY QISMDA bir kun



Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ana shu ezgu maqsad yo'lida mamlakatimizning barcha hududlarida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni Vatan himoyachilarining sharaflı faoliyati bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Yoshlar oyligi hamda "Dolzab 90 kun" loyihasi doirasida Namangan viloyatida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda "Harbiy qismda bir kun" tadbiri tashkil etildi. Unda Pop tumani yoshlar ishlari bo'limi vakillari, 3-sonli texnikum talabalari va bir guruh yoshlar ishtirok etdi. Tadbır davomida ishtirokchilar harbiy qism faoliyati, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, yoshlarga zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslahalar namoyish etilib, harbiy xizmatning mazmun-mohiyati, Vatan himoyachilarining sharaflı va mas'uliyatli faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Harbiy xizmatchilar bilan tashkil etilgan samimiy muloqot tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldirdi. Ular suhbat davomida o'zlarini qiziqitgan savollarga javob olib, harbiy xizmatning kundalik hayoti va o'ziga xos jihatları haqida yaqindan tasavvur hosil qildi.

– Bugungi tashrif bizda juda katta taassurot qoldirdi, – deydi Pop tumanidagi 3-sonli texnikum talabasi Ikrom Ikromov. – Ilgari harbiy qism hayotini faqat tasavvur qilardik, bugun barchasini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Eng muhimi, harbiylar bilan yuzma-yuz suhbat qilish imkoniga ega bo'ldik. Ulardan xizmatning qiyin va sharaflı tomonlari haqida eshitib, bu kasbga bo'lgan qiziqishimiz yanada ortdi. Kelgusida yurtimiz tinchligi va ravnaqi uchun o'z hissamni qo'shish, Vatan himoyachilari safida xizmat qilish istagim yanada mustahkamlandi.

"Harbiy qismda bir kun" tadbiri yoshlarning harbiy kasbga qiziqishini oshirish, ularni vatanparvarlik, fidoyilik va mardlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan muhim ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan biri bo'ldi. Zero yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi yo'lida xizmat qilish har bir o'g'lon uchun sharaflı va mas'uliyatli burchdir.

Mayor Ahror SAFARALIYEV



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6150

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 769 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqan boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@gmail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya